

O'quv qoidalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori

Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga (O'zbekiston Respublikasi QT, 2017 y., 6-son, 108-modda) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.A. Abdusakimov hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2019 yil 27 aprel,

360-son

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-son qaroriga ILOVA

Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Qarorning 1-bandida:

a) to'rtinchi xatboshidagi «muvofiq;» so'zi «muvofiq tasdiqlansin» so'zlari bilan almashtirilsin;

b) beshinch xatboshi chiqarib tashlansin.

2. 1-ilovada:

a) 1-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Ushbu Nizom harbiy ta'lim muassasalariga va O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi»;

b) 3-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«3. Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi, sirtqi, maxsus sirtqi va kechki (smenali) ta'lim shakllariga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi»;

to'rtinchi xatboshidagi «to'plagan test ballari» so'zlari «kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plagan ballari» so'zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi «rektorlari joylarda test sinovlarini» so'zlari «rektorlari (filial direktorlari) joylarda kirish imtihonlarini (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)» so'zlari bilan almashtirilsin;

v) quyidagi mazmundagi 4¹-band qo'shilsin:

«4¹. Abiturientlardan alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlariga qabul test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha imtihon dasturlari va har bir fan xususiyati hisobga olingan holda baholash mezonlari, shuningdek, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmaydi, ular navbatdagi imtihonlarga qo'yilmaydi hamda o'qishga qabul qilinmaydi»;

g) 6-bandning birinchi, ikkinchi va to'rtinchi xatboshilaridagi «ispan,» so'zidan keyin «turk,» so'zi qo'shilsin;

d) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«10. Sirtqi, maxsus sirtqi ta'limga talabalarni qabul qilish:

sirtqi ta'lim shaklida — umumiy o'rta (10-11-sinflar negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti to'g'risidagi tegishli hujjatga ega bo'lgan va sirtqi ta'limga kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar hisobidan;

maxsus sirtqi ta'lim shaklida — faqat mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga va ta'lim yo'nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogik

yo‘nalishlar uchun pedagogik stajga) hamda ishlab turgan soha tashkilotlaridan berilgan tavsiyanomaga ega bo‘lgan, kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi»;

ye) quyidagi mazmundagi 10^1 — 10^5 -bandlar qo‘shilsin:

« 10^1 . Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakliga o‘qishga qabul qilish Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan kirish test sinovlari yoki oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) orqali tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bunda:

oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakliga test sinovlari orqali o‘qishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi;

oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakliga oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) orqali tanlov asosida o‘qishga qabul qilish mazkur Nizomga 5-ilovada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10^2 . Oliy ta‘lim muassasalari uchun belgilangan qabul kvotalari tarkibida hududlar kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan ta‘lim yo‘nalishlariga qabul muayyan hududda doimiy yashaydigan (pasportdagi ma‘lumoti bo‘yicha), umumiy o‘rta (10-11-sinflar negizida), o‘rta maxsus, kasb-hunar ma‘lumoti to‘g‘risidagi tegishli hujjatga ega bo‘lgan va kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi.

10^3 . Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta‘lim yo‘nalishlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 iyundagi 417-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

10^4 . O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning ofitserlari, shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatni o‘tashda halok bo‘lgan, shuningdek, harbiy xizmatni o‘tashda yarador bo‘lgan, kontuziya, shikast olish natijasida nogiron bo‘lib qolgan yoki kasalliklarga duchor bo‘lgan harbiy xizmatchilarning farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida belgilangan qabul

kvotalaridan tashqari davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga (ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limdan tashqari) o'qishga tanlovsiz qabul qilinadilar.

10⁵. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, shartnoma bo'yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibi farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklidagi ta'lim yo'nalishlariga davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotalarining besh foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul kvotalari ajratiladi.

Ajratilgan besh foizli davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul kvotalariga talabalikka qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning belgilangan shakldagi tavsiyanomalariga ega bo'lgan abituriyentlarning test sinovlari natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ajratilgan besh foizli davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul kvotalariga qabul qilinmagan abituriyentlar to'plagan ballari bilan mazkur ta'lim yo'nalishida umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadilar»;

j) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«12. Oliy ta'lim muassasalarida o'qishga qabulni sifatli tashkil etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida qabul komissiyalari tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan tartibda qabul komissiyasi raisi, uning o'rinbosari va qabul komissiyasi kotiblari tayinlanadi. Bunda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) lavozim bo'yicha qabul komissiyasiga raislik qiladi.

Qabul komissiyalari a'zolarining vazifalari qabul komissiyasi raisi tomonidan belgilanadi.

Abituriyentlarning o'qishga qabul qilish haqidagi arizalari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan 15 iyundan 15 iyulgacha (shu kuni ham), O'zbekiston davlat konservatoriyasi uchun 15 iyundan 10 iyulgacha (shu kuni ham) qabul qilinadi.

Arizalar onlayn tarzda ham qabul qilinishi mumkin.

Abituriyent oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

ta'lim yo'nalishi, o'quv tili, shakli ko'rsatilgan holdagi ariza (arizada oliy ta'lim muassasasini tugatganligi yoki oliy ma'lumoti yo'qligi, qaysi chet tilidan test topshirishi, harbiy tavsiyanomaga ega bo'lganlar uning raqamini va tanlangan ikkinchi oliy ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishini ko'rsatishlari hamda test sinovlarini o'tkazish qoidalari va javoblar varaqalarini to'g'ri to'ldirish bilan tanishganligi ko'rsatiladi);

umumiy o'rta ta'limni (11-sinf negizida) tugatganligi haqidagi hujjat yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjat va uning ilovasi asl nusxalari;

pasport (16 yoshga to'lmaganlar uchun tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma)ning nusxasi;

3,5 x 4,5 sm o'lchamdagi 6 dona rangli fotosurat;

qonun hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjatning asl nusxasi;

maxsus sirtqi bo'lim abituriyentlari uchun mehnat daftarchasidan belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma va ishlab turgan sohadan tavsiyanoma.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar va ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi shaxslar ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatlarni topshiradilar.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar toifasiga «Mehribonlik uylari»da yashab ta'lim olgan, 18 yoshga to'lmagan, otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki sud qaroriga binoan vafot etgan deb e'lon qilingan bolalar kiradi.

Ariza shakli oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Tanlovdan tashqari o'qishga kirish huquqiga ega bo'lgan xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalar g'oliblari asl nusxadagi tasdiqlovchi hujjatlarni topshiradilar.

Abituriyent arizasidagi «o'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman» ustuniga hujjatlar bilan tasdiqlovchi holatlar (bolalikdan I va II guruh nogironlari, yetim, «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilari va boquvchisi yo'q) qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolar harbiy qism qo'mondonligining tegishli tavsiyanomasining aslini mazkur bandning yettinchi — o'ninchi xatboshilarida ko'rsatilgan hujjatlar bilan birgalikda taqdim etadilar.

Harbiy qism tavsiyanomasining shakli va uni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan belgilanadi.

Abituriyent tomonidan pasport (16 yoshga to'lmaganlar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma) qabul komissiyasiga shaxsan ko'rsatiladi.

Harbiy qismlar qo'mondonligi tavsiyanomalari ular berilgan kundan hamda muddatli harbiy xizmatni tugatgan davridan boshlab uch yil mobaynida haqiqiy hisoblanadi (oliy ta'lim muassasasiga talabalikka qabul qilinganligi to'g'risidagi rasmiy buyruq bo'lsa, imtiyozdan takroran foydalanish mumkin emas).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyentning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Hujjatlar qabul qilishning belgilangan muddatlari tugagandan so'ng hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish qat'iyan man qilinadi.

Abiturient tomonidan topshirilgan hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, u holda abiturient kirish imtihonlaridan (talabalikka qabul qilingan bo'lsa oliy ta'lim muassasasi talabalari safidan) chetlashtiriladi hamda hujjatlari belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari 20 iyulgacha bo'lgan muddatda Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga ta'lim yo'nalishi, o'quv shakli va tili ko'rsatilgan holda, abiturientlarning soni haqida belgilangan shakldagi ma'lumotni imtiyozga ega bo'lganlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qo'shib taqdim etadilar»;

z) 17-bandda:

birinchi xatboshidagi «test sinovlarining» so'zlari «kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)ning» so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidagi «test natijalari» so'zlari «abiturientlarning oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etilganligi» so'zlari bilan almashtirilsin;

i) 18-bandning beshinch xatboshidagi «test sinovi» so'zlari «kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)» so'zlari bilan almashtirilsin;

k) 19-bandning birinchi xatboshidagi «eng yuqori ballning 30 % (68,0 ball)dan» so'zlari «Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan» so'zlari bilan almashtirilsin;

l) 20-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«20. Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)da to'plagan natijalari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan, asosiy kvotalar doirasida va Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qo'shimcha o'rinlarga qabul qilinmay qolgan va o'qish istagini bildirgan abiturientlarga birinchi o'quv yiliga amalda o'rnatilgan to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan 10 barobar va undan ortiq oshirilgan to'lov-kontrakt miqdorida to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam ball to'plagan abiturientlarga birinchi o'quv yiliga amaldagi oshirilgan to'lov-kontraktning ta'lim yo'nalishi bo'yicha belgilangan eng yuqori miqdorining 2 barobariga teng to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Test sinovlari natijasi bo'yicha yetarli ball to'plamagan va oshirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qish istagini bildirgan barcha abiturientlar uchun oshirilgan to'lov-kontraktning miqdori (barobari) kam bo'lgan ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyati beriladi. Bunda, abiturient test topshirgan fanlar majmuasining (fanlarning blokda o'rni) mosligi bilan birgalikda uning doimiy yashash joyi yoki hujjat topshirgan oliy ta'lim muassasasi joylashgan hudud mezon etib belgilanadi.

Oshirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qish istagini bildirgan abituriyent Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlarini birinchi o'quv yili uchun to'liq bajargandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi»;

m) 21-bandning ikkinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

n) 23-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida» 1993 yil 5 fevraldagi PF-555-son Farmoniga muvofiq hamda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» 2008 yil 13 oktabrdagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risidagi nizom hamda Respublika olimpiadalari, tanlovlari va sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi nizomlar asosida xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Kasb-hunar ta'limi markazi ta'sis etadigan maxsus guvohnomani olganlar Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalarining mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida» 1999 yil 10 iyundagi PF-2326-son Farmoniga muvofiq Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari bo'lgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mard o'g'lon» davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 21 noyabrdagi PQ-3402-son qaroriga muvofiq «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va tegishli vazirliklar, idoralar tomonidan har yili o'tkaziladigan pedagogika o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilari va ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining «Tarbiyachi» respublika tanlovi g'olibi, tibbiyot muassasalari hamshiralarning

«Hamshira» respublika tanlovi g‘olibi, Badiiy akademiyaning tasviriy san‘at bo‘yicha respublika tanlovi g‘oliblari, «Nihol» mukofoti sovrindorlari mazkur vazirliklar, idoralar va jamg‘armalar taqdimnomalariga muvofiq Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta‘lim muassasalariga, mos ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta‘lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish maqsadida tavsiyanomalar berish bo‘yicha respublika komissiyasi taqdimnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar;

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Is‘hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning butun o‘qish davrini a‘lo baholarga o‘qigan bitiruvchilari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining tavsiyasiga asosan Davlat komissiyasi qarori bilan oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining xorijiy til va adabiyoti, filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarsiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz qo‘shimcha davlat grantlari asosida o‘qishga qabul qilinadilar.

Olimpiada fani, tanlovlar bilan oliy ta‘lim yo‘nalishlari o‘rtasidagi kasbiy muvofiqlik Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta‘lim muassasalari qabul komissiyalari olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalar g‘oliblarining arizalari haqidagi ma‘lumotlarni, ta‘lim yo‘nalishi, o‘quv shakli va tili ko‘rsatilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga 22 iyulgacha bo‘lgan muddatda taqdim etadilar. Davlat komissiyasi 31 iyulgacha g‘olib bo‘lganlar bo‘yicha tegishli vazirliklar, idoralarning taqdimnomasi asosida alohida qaror qabul qiladi.»;

o) quyidagi mazmundagi 24¹-band qo‘shilsin:

«24¹. Harbiy xizmatchilar orasidan yuqori natijalarga erishgan, har bir harbiy qismdan bittadan yosh harbiy xizmatchi harbiy qism qo‘mondonligi (rahbariyati) va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tavsiyanomasiga muvofiq oliy ta‘lim muassasalariga tasdiqlangan davlat granti kvotalariga qo‘shimcha ravishda, imtihonlarsiz qabul qilinadi»;

p) 25-bandning ikkinchi xatboshisidagi «I guruh ko‘zi ojiz nogironlar» so‘zlari «ko‘zi ojizlar toifasiga kiruvchilar» so‘zlari bilan almashtirilsin;

r) quyidagi mazmundagi 26¹-band qo‘shilsin:

«26¹. Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risidagi qarorlardan norozi bo‘lganlar tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega»;

s) Nizomga 1-ilovaning 8-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«8. Jadval bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o‘tkazilmaydi, ular navbatdagi imtihonlarga qo‘yilmaydi hamda o‘qishga qabul qilinmaydi»;

t) Nizomga 2-ilovaning 5-bandi birinchi xatboshisidagi «(tegishli ravishda 111,6 ball, 75,6 ball yoki 39,6 ball)» so‘zlari «(tegishli ravishda 93,0 ball, 63,0 ball yoki 33,0 ball)» so‘zlari bilan almashtirilsin;

u) 4-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

f) quyidagi mazmundagi 5-ilova qo‘shilsin:

«Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizomga

5-ILOVA

Oliy ta’lim muassasalarining sirtqi ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilish

TARTIBI

1. O‘qitishning sirtqi shakliga talabalikka qabul faqat to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

2. O‘qitishning sirtqi shakliga kirish uchun hujjatlar har yili 1 iyuldan 30 iyulgacha bo‘lgan muddatda qabul qilinadi.

3. Oliy ta’lim muassasasi ta’lim yo‘nalishi (fan) bo‘yicha imtihon komissiyasining raisligiga nomzodni o‘z vaqtida tasdiqlash uchun bo‘ysunuviga qarab tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga taqdim etadi.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim yo‘nalishi (fan) bo‘yicha imtihon komissiyasining raislari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

4. Kirish imtihonlari boshlanishidan oldin rektorning buyrug‘i bilan tegishli fanlar bo‘yicha imtihonlarni tashkil etish va qabul qilish uchun tajribali, malakali va mas’uliyatli professor-o‘qituvchilar tarkibidan ta’lim yo‘nalish (fan)lari bo‘yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi.

5. Ayrim hollarda oliy ta’lim muassasasi ta’lim yo‘nalishi (fan) bo‘yicha imtihon komissiyasi tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari hamda boshqa ta’lim muassasalari o‘qituvchilari asosiy ish joyi ma’muriyatining tavsiyalariga binoan kiritilishi mumkin.

6. O'qitishning sirtqi shakliga kirish imtihonlari dasturlari, baholash mezonlari hamda kirish imtihonlari bo'yicha ularga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik yoki idora bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi va kirish imtihonlari boshlanishidan oldin abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Kirish imtihonlari topshiriqlari umumiy o'rta (11-sinf negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlarining o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

Sport fanlari bo'yicha imtihonlar topshiriqlari abituriyentlarning alohida toifalari uchun (jinsi va yoshi bo'yicha) belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq tuziladi.

7. Kirish imtihonlari o'tkazilishidan bir hafta oldin abituriyentlarga oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi mas'ul kotibi imzolagan va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi muhri qo'yilgan va ushbu tartibga 1-ilovada namuna sifatida keltirilgan ruxsatnoma beriladi.

8. Kirish imtihonlarini tashkil etish va ularni joylarda adolatli o'tkazish mas'uliyati oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari raislari, fan bo'yicha imtihon komissiya raislari va ular tomonidan tayinlanadigan mas'ul xodimlarga yuklanadi.

9. Kirish imtihonlari har yili 16 avgustdan 25 avgustgacha bo'lgan muddatda o'tkaziladi.

Kirish imtihonlari kamida 3 ta fandan muayyan ta'lim yo'nalishida o'qitish tilida o'tkaziladi.

10 Pedagogika ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirayotgan abituriyentlarga kasbiy layoqatiga muvofiq kasb tanlashga ko'maklashish oliy ta'lim muassasalari tomonidan ochiq eshiklar kuni, karera kuni, mehnat yarmarkasi tadbirlarini o'tkazish, shuningdek, abituriyentlardan hujjat qabul qilish jarayonida fakultetlarda tashkil etilgan kasbga yo'naltirish xonalarida maslahatlar berish orqali amalga oshiriladi.

11. Imtihonlarga ajratiladigan vaqt imtihon dasturlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

12. Kirish imtihonlari o'tkaziladigan binoga kirishda abituriyent mikrokalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo'lsa, imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini auditoriyadan tashqariga chiqarsa, abituriyent imtihon o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va ta'lim yo'nalishi (fan) bo'yicha imtihon komissiyasi raisi (a'zosi)

tomonidan dalolatnoma tuzilib, u imtihondan chetlashtiriladi va o'qishga qabul qilinmaydi.

13. Imtixon jarayoni har bir guruhda kamida 2 nafar guruh nazoratchisi kuzatuvda komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan jadvalga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi.

14. Abituriendlarning yozma (amaliy) shaklda bajargan imtixon ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Kirish imtihoni tugaganidan so'ng guruh nazoratchisi abituriendlarning yozma (amaliy) imtixon ishlarini qabul qilib olish, har bir yozma (amaliy) ish va uning ushbu tartibga 2-ilovada namuna sifatida keltirilgan titul varag'iga identifikatsiya raqamlari (shifr)ni qo'yish hamda imtixon komissiyasi raisiga ushbu imtixon ishlarini tekshirishga berish uchun mas'ul hisoblanadi.

Yozma (amaliy) imtixon ishlariga qo'yilgan shifrlarning maxfiyligini ta'minlashga guruh nazoratchisi shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Yozma (amaliy) imtixon ishlarini shifrlash va qayta tiklash hamda ularni tekshirish va baholash maxsus ajratilgan xonalarda amalga oshiriladi.

Yozma (amaliy) imtixon ishlarini ob'ektiv tekshirish va baholash uchun mas'uliyat fan bo'yicha imtixon komissiyasi raisi va a'zolariga yuklatiladi.

Yozma (amaliy) imtixon ishlari qabul komissiyalarining maxsus xonalarida bir yil saqlanadi va ushbu muddat o'tganidan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

15. Qabul komissiyalari faoliyati oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuviga ko'ra vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari yoki tegishli vazirlik va idoralar tomonidan vakolat berilgan xodimlar tomonidan kuzatib boriladi.

16. Imtihonlar, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va ularga muvofiq keluvchi 3 ta fan majmualarida to'planishi mumkin bo'lgan maksimal 189,0 balldan, har bir fanning o'rniga qarab uning uchun ajratilgan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oraliqda baholanadi.

17. Imtihonlar natijalari ballar miqdori sifatida, titul varag'iga va qaydnomaga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri fan bo'yicha imtixon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhrlanadi.

18. O'qitishning sirtqi ta'lim shakli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq fanlar majmuasidagi har bir fan bo'yicha imtixon natijalari imtixon xususiyatiga qarab, imtixon o'tkazilganidan keyin 1 — 3 kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

19. Oliy ta'lim muassasasida imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi ishi tashkil etiladi.

Norozilik (apellyatsiya) arizalari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

20. Jadval bo'yicha imtihonlarga (imtihon fani, bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta imtihonlar o'tkazilmaydi va ular o'qishga qabul qilinmaydi.

21. Kirish imtihonlari natijalariga ko'ra abituriyentlarni talabalikka tavsiya etish to'g'risida oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i qabul qilinib, kirish imtihonlari qaydnomalari har yili 29 avgustga qadar bo'ysunuviga ko'ra tegishli vazirlik (idora)ga taqdim etiladi.

O'qitishning sirtqi shakliga talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarni 2 sentabrdan boshlab darslarga qatnashishga ruxsat berish to'g'risida oliy ta'lim muassasasining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

O'qitishning sirtqi shakliga abituriyentlarni o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun shartnomada belgilangan mablag' miqdori 15 sentabrdan kechiktirilmay, belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

22. Sirtqi ta'lim yo'nalishlariga qabul qilish to'g'risidagi qarorlardan norozi bo'lganlar belgilangan tartibda, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish tartibiga

1-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalarining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish tartibiga

2-ILOVA

».

3. 2-ilovada:

a) 1-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Ushbu Nizom harbiy ta'lim muassasalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga, Toshkent davlat yuridik universitetiga, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Respublika biznes va boshqaruv oliy maktabi, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi»;

b) 3-bandning beshinch xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Tanlov har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha magistrlik mutaxassisligi, o'qitish tili va shakliga ko'ra alohida o'tkaziladi. Ayrim magistratura

mutaxassisliklari bo'yicha hududlar kesimida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari (oliy ta'lim muassasasi) bo'yicha alohida o'tkaziladi»;

v) 4-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Kirish sinovlari tegishli mutaxassislik o'qitiladigan tilda o'tkaziladi»;

g) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari, shuningdek «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sohiblari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalari va bakalavr darajasiga ega yoshlar oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga bakalavriatning ta'lim yo'nalishiga mos va turdosh mutaxassisliklarga tanlovdan tashqari alohida davlat grantlari asosida qabul qilinadilar»;

d) 10-bandga quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi qo'shilsin:

«qonun hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjatning asl nusxasi»;

ye) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«12. Hujjatlar taqdim etilishi jarayonida abituriyentlar pasportini shaxsan ko'rsatadilar»;

j) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«14. Magistraturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi: magistraturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash mezoni 0 balldan 100 ballgachani tashkil etadi);

chet tili (xorijiy filologiya, xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishlari bazasidagi mutaxassisliklar uchun ikkinchi chet tili) fani bo'yicha sinov o'tkaziladi (baholash mezoni 0 balldan 50 ballgachani tashkil etadi);

oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining umumiy reytingi yoki o'zlashtirish ko'rsatkichi (o'zlashtirish tegishli ravishda 55 balldan 100 ballgacha bo'lgan diapazonda yuzdan bir aniqlikda, o'zlashtirgan fanlarining o'rtacha bali orqali ifodalanadi) aniqlanadi.

Xalqaro tan olingan chet tilini bilish darajasi haqidagi sertifikat (TOEFL bo'yicha kamida 72 yoki IELTS bo'yicha kamida 5,5 ball, TestDaF (TD№3), CEFR bo'yicha kamida V2) yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan Chet tilini bilish darajasi haqidagi V2 yoki S1 darajasidagi sertifikat taqdim etganlarga chet tilidan 50 ball qo'yiladi va ular chet tilidan kirish sinovida ishtirok etmaydi.

Magistraturaga o‘qishga kirishda eng ko‘p (maksimal) to‘planishi mumkin bo‘lgan ball — 250 ni tashkil etadi»;

z) 16-banddan ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilar chiqarib tashlansin;

i) 7-bob o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

k) quyidagi mazmundagi 31¹-band qo‘shilsin:

«31¹. Oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha qarorlardan norozi bo‘lganlar tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega».

4. 3-ilovada:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga, harbiy oliy ta‘lim muassasalariga, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta‘lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi»;

b) quyidagi mazmundagi 2¹-band qo‘shilsin:

«2¹. Xorijiy fuqarolarning o‘qishini xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalariga ko‘chirish (tiklash) suhbat asosida amalga oshiriladi. Ularning to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdori qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi»;

v) 3-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Ma‘lumotlar bazasi mazkur Nizom, hududiy ishchi guruhlar tashkil etiladigan oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxati va ularga topshiriladigan hujjatlar namunalari, xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan o‘qishini ko‘chirmoqchi bo‘lganlar uchun sinovlarni o‘tkazish muddatlari, manzili aks ettirilgan jadvaldan tashkil topadi»;

g) 4 — 10-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«4. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashda (keyingi o‘rinlarda talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash deb ataladi) ta‘lim yo‘nalishlarining (mutaxassisliklarining) nomlanishi bir xil bo‘lganda bunday ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) mos deb hisoblanadi.

Oliy ta‘limning turdosh ta‘lim yo‘nalishlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Talabalar o‘qishini ko‘chirish yoki qayta tiklash:

oliy ta‘lim muassasalari;

tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar;

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) qarorlari asosida amalga oshiriladi.

6. Bir oliy ta’lim muassasasi doirasida oliy ta’limning mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash shu oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i asosida amalga oshiriladi.

7. Quyidagi hollarda talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash talabani qabul qilayotgan oliy ta’lim muassasasi bo‘ysunadigan vazirlik (idora) qarori asosida amalga oshiriladi:

oliy ta’limning mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo‘yicha bir vazirlik (idora) doirasida boshqa oliy ta’lim muassasasiga;

oliy ta’limning mos va turdosh yo‘nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo‘yicha turli vazirlik (idora) doirasida bir oliy ta’lim muassasasidan boshqa oliy ta’lim muassasasiga.

8. Quyidagi hollarda talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash Davlat komissiyasi qarori bilan amalga oshiriladi:

xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo‘lgan oliy ta’lim muassasalaridan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga;

bir oliy ta’lim muassasasi doirasida yoki bir vazirlik yoki idora yoxud turli vazirliklar va idoralar tizimidagi oliy ta’lim muassasalariga oliy ta’limning turdosh bo‘lmagan ta’lim yo‘nalishlariga va istisno tariqasida mos bo‘lmagan mutaxassisliklariga.

9. Quyidagi holatlar fuqaroning o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo‘ladi:

xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo‘lmagan oliy ta’lim muassasalarida yoki ularning filiallarida o‘qiganlarga;

respublika oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud ta’lim shaklidan o‘zga (boshqa) ta’lim shaklida o‘qiganlarga;

oliy ta’lim muassasalarining markazlari, bo‘limlari, o‘quv-maslahat punktlari va boshqalarda o‘qiganlarga;

birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o‘qishni ko‘chirishga (talabaga kasallik tufayli akademik ta’til berilgan holatlar, o‘qigan ta’lim yo‘nalishi mavjud bo‘lmaganda ko‘chirib tiklash holatlari bundan mustasno);

oliy ta’lim muassasasida mos (turdosh) ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) yoki ta’lim shakli mavjud bo‘lmasa;

namunaviy o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo‘yicha farqlar 4 tadan oshganda;

to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda;

talabaning shaxsiy yig'ma jildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

oliy ta'lim muassasasiga davlat granti asosida ko'chirish va qayta tiklash davlat granti asosida ta'lim oluvchilar soni (qabul kvotalari) doirasida bo'sh o'rinlar mavjud bo'lmasa;

oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasining imkoniyati cheklanganda;

maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta'lim yo'nalishi yoki ta'lim shakliga, boshqa oliy ta'lim muassasasiga;

kechki (smenali) ta'limdan sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga hamda kechki (smenali) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limdan kunduzgi ta'limga hamda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

bir ta'lim shaklidan maxsus sirtqi ta'lim shakliga hamda maxsus sirtqi ta'lim shaklidan boshqa ta'lim shakliga;

talaba O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinib qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olgan yoki tahsil olayotgan bo'lsa (mazkur qo'shma dasturning o'zi bundan mustasno);

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.

Fuqaroning o'qishini ko'chirish (qayta tiklash) bo'yicha arizasiga rad javobi berilgan taqdirda, arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatda, arizada ko'rsatilgan manzilga, arizani ko'rib chiqqan komissiya yoki komissiya vakolat bergan tashkilot tomonidan javob xati yo'llanadi.

10. Talabalarning o'qishini ko'chirish va qayta tiklashni rasmiylashtirishda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) belgilangan tartibda o'quv rejalari va dasturlardagi mavjud akademik qarzlarni yoki farqlarni (namunaviy o'quv rejalariidagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlar 4 tadan oshmasligi lozim) topshirish tartibi va muddatlarini (joriy semestr davomida), o'qitish kursi (semestri) hamda o'qishga qabul qilishning qonun hujjatlarida belgilangan boshqa shartlarini belgilaydi»;

d) 15-bandning uchinchi-to'rtinchi xatboshilari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«arizalarni oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqib, qaror qabul qilish — har yili 5 avgustdan 30 avgustga qadar amalga oshiriladi.

Talabalar o'qishini ko'chirish uzrli sabablarga ko'ra (respublikaning bir hududidan ikkinchi hududiga doimiy yashash uchun yoki turmushga chiqish munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan (pasport bo'yicha doimiy ro'yxatdan o'tgan) hududga ko'chib o'tganda, turmush o'rtog'i yoki ota-onasi

harbiy xizmat o'tash joyini o'zgartirganda, yoxud ota-onasi (turmush o'rtog'i) xorijdagi davlat xizmatidan qaytganda) bahorgi semestrda o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda:»;

j) 16-bandning beshinchi xatboshisidagi «Idoralararo komissiyaga» so'zlari «Davlat komissiyasiga» so'zlari bilan almashtirilsin;

z) 17-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«ko'chirish (qayta tiklash)ni istagan ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), o'quv tili va shakli ko'rsatilgan holdagi ariza (arizada o'qigan oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), ta'lim shakli, maqsadli qabul bo'yicha o'qishga kirmaganligi, ko'chirish (qayta tiklash) sabablari, ko'chirish (qayta tiklash) qoidalari bilan tanishganligi ko'rsatiladi)»;

i) 18-bandning to'rtinchi va oltinchi xatboshilaridagi «Idoralararo komissiya» so'zlari «Davlat komissiyasi» so'zlari bilan almashtirilsin;

k) 19-banddagi «Idoralararo komissiyaning» so'zlari «Davlat komissiyasining» so'zlari bilan almashtirilsin;

l) 20-bandga quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi qo'shilsin:

«O'qishi ko'chirilishiga ruxsat etilgan talabaning maqsadli qabul asosida o'qiyotganligi o'qib turgan oliy ta'lim muassasasi tomonidan tekshiriladi va haqiqatda maqsadli qabul asosida o'qiyotganligi aniqlangan taqdirda so'rovnoma yuborgan oliy ta'lim muassasasiga hamda talabaga mazkur talabaning o'qishi ko'chirilishi mumkin emasligi to'g'risida uch kun muddatda tegishli xat yo'llanadi»;

m) 22-23-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«22. O'qishning barcha shakllari bo'yicha oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha davlat grantlari o'rinlariga ko'chirishga faqat davlat grantlari asosida tahsil olgan talabalar arizasiga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida tegishli o'quv yilidagi qabul qilish kvotalarida belgilangan davlat grantlarining soni doirasida ruxsat etiladi.

Ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi sifatida hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga ajratilgan kvota doirasida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar o'qishini oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklariga davlat granti asosida ko'chirilishiga ruxsat etiladi.

Boshqa hollarda, shuningdek, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishni ko'chirish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

23. Xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish va ko'chirib qayta tiklash istagini bildirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarda tashkil qilingan komissiyalarda o'qishi ko'chirilayotgan oliy ta'lim muassasalarining muayyan ta'lim yo'nalishidagi o'qishga kirish fanlari

bo'yicha o'qiydigan tilida maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish yoki kasbiy (ijodiy) imtihon shaklida) topshiradi.

Turmush o'rtog'i yoki ota-onasi xorijiy davlatdagi davlat xizmatini o'tash joyi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasiga o'tkazilgan, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda oliy ta'lim muassasalariga ega vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o'qishga yuborilganlarning o'qishini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish maxsus sinovlarsiz Davlat komissiyasi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Fuqaroning maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish yoki kasbiy (ijodiy) imtihon shaklida) natijasi Davlat komissiyasiga taqdim etiladi. Maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish shaklida) natijasidan kelib chiqib, fuqaro Davlat komissiyasi qarori bilan ko'rsatilgan o'quv shaklidagi guruhlariga to'lov-kontrakt asosida ko'chiriladi.

Ko'chirilayotgan oliy ta'lim muassasasida tegishli o'qitish tili mavjud bo'lmasa, o'qitish tilini tanlash fuqaroning arizasiga muvofiq amalga oshiriladi»;

n) quyidagi mazmundagi 23¹ va 23²-bandlar qo'shilsin:

«23¹. Xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatdan joy olgan Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning arizalariga muvofiq ularning o'qishi Davlat komissiyasi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga sinovlar (test, yozma ish)siz to'lov-kontrakt asosida ko'chiriladi.

Xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta'lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatdan joy olgan Rossiya Federatsiyasi davlat oliy ta'lim muassasalari ro'yxati har yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

23². Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'qishini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ko'chirilishiga ruxsat etilmaydi»;

o) 24-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«24. Oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning talabani belgilangan tartib va muddatda darslarga qatnashishiga ruxsat etish to'g'risidagi buyrug'i talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasidan uning shaxsiy yig'ma jildi (shaxsiy yig'ma jild jo'natilishi mumkin bo'lmagan hollarda — akademik ma'lumotnomasi) olingandan keyin rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishi ko'chirilganlarni talabalar safiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to'lovlari bajarilgandan so'ng 10 kun muddatda qabul qilinadi»;

p) 27-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«o‘qishini bahorgi semestrda qayta tiklash bo‘yicha ariza topshirish — har yili 15 yanvardan 25 yanvargacha davom etadi»;

r) 29-bandning uchinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«ushbu Nizomning 7-bandida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha arizalar tegishli vazirlik yoki idora tomonidan ko‘rib chiqilib, qaror qabul qilinadi va bu haqda ariza bergan shaxsga ma‘lum qilinadi;

ushbu Nizomning 8-bandida ko‘rsatilgan holatlar bo‘yicha arizalar Davlat komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi»;

s) 30-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan yetimlar, I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o‘tagan (zaxiraga bo‘shagan kunlaridan boshlab uch yil mobaynida), akademik ta‘tildan belgilangan muddatda qaytgan shaxslar, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o‘qishga yuborilgan va belgilangan muddatda qaytgan talabalar istisno tariqasida o‘qishga (muayyan kursga) davlat grantlari o‘rinlariga qayta tiklanishi mumkin»;

t) quyidagi mazmundagi 30¹-band qo‘shilsin:

«30¹. Respublika oliy ta‘lim muassasalarining talabasi bo‘lgan hamda hukumatlararo yoki idoralararo yoki oliy ta‘lim muassasalararo kelishuv doirasida xorijiy oliy ta‘lim muassasasida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasasida tahsil olgan ta‘lim yo‘nalishiga mos bo‘lgan yo‘nalish bo‘yicha, bir yoki bir necha semestr o‘qib (O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta‘lim muassasasi bilan kelishuv asosida) belgilangan muddatda qaytgan talabalarning xorijiy oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olgan muddatlarini (semestr) O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasasida inobatga olgan holda (muayyan ta‘lim yo‘nalishi va ta‘lim shaklida, jumladan, davlat granti asosida tahsil olgan talabalar — davlat granti asosida) o‘qishini davom ettirishiga ruxsat etiladi.

Bunda muayyan ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha namunaviy o‘quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo‘yicha farqlarni tegishli o‘quv semestri davomida qayta o‘zlashtirishga ruxsat etiladi.

Belgilangan muddatdan kech qaytgan talabalar o‘qishining tiklanishi umumiy tartibda ko‘rib chiqiladi»;

u) 31-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«31. Oliy ta‘lim muassasasi rektori (direktori)ning talabani talabalar safiga qayta tiklashga, belgilangan tartib va muddatlarda darslarga qatnashishiga ruxsat etish to‘g‘risidagi buyrug‘i (ko‘chirib tiklashda talaba ilgari ta‘lim olgan oliy ta‘lim muassasasidan uning shaxsiy yig‘ma jildi (shaxsiy yig‘ma jild jo‘natilishi mumkin bo‘lmagan hollarda — akademik ma‘lumotnomasi) olingandan keyin) rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishi tiklanganlarni talabalar safiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to'lovlari bajarilgandan so'ng 10 kun muddatda qabul qilinadi»;

f) 36-37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«36. Talaba oliy ta'lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

a) o'z xohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

g) o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;

d) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

ye) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

j) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

z) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

i) vafot etganligi sababli.

Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta'tillari davrida talabaga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida akademik ta'til berilishi mumkin.

37. Belgilangan muddatlarda fanlarni o'zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo'lgan) talaba oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to'lov-kontrakt asosida o'qishini quyi kursning tegishli o'quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talabalar quyi kursdagi tegishli o'quv semestrndan boshlab faqat o'zlashtira olmagan fanlarini (modullarni) takroran o'qishi mumkin.

Kursdan qoldirilgan talaba ushbu Nizomning 36-bandidagi holatlar bo'yicha talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin»;

x) Nizomga ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida nizomga ILOVA

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish va qayta tiklashni amalga oshirish

TARTIBI

	Kuzgi semestr bo'yicha	
1-bosqich	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bitta oliy ta'lim muassasasida hamda vazirlikda faoliyat yuritadigan Ishchi guruh tashkil etiladi.	15 iyungacha
2-bosqich	Talabalar o'qishini ko'chirish (qayta tiklash) bo'yicha arizalar quyidagi joylarda qabul qilinadi: oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha ko'chirish va qayta tiklash ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasida; qolgan hollarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladigan Hududiy ishchi guruhlari orqali qabul qilinadi.	15 iyuldan 5 avgustgacha
3-bosqich	Oliy ta'lim muassasasi, vazirlik (idora) va Davlat komissiyasi arizalar yuzasidan qaror qabul qiladi va fuqaroga (yoki oliy ta'lim muassasasiga) javob xati yo'llaydi.	5 avgustdan 30 avgustgacha
4-bosqich	Ko'chirish (qayta tiklash) masalasi ijobiy hal etilgan holda (tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasining xati asosida) oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan talaba darslarga qo'yiladi hamda ushbu oliy ta'lim muassasasi tomonidan talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasiga uning shaxsiy yig'ma jildini jo'natish uchun so'rovnoma yuboriladi.	2 sentabrdan 10 sentabrgacha
5-bosqich	Talabani talabalar safiga qabul qilish to'g'risidagi buyruq talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasidan uning shaxsiy yig'ma jildi olinib, to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirgandan so'ng chiqariladi.	1 oktabrgacha

	Bahorgi semestr bo'yicha	
6-bosqich	Talabalar o'qishini ko'chirish (qayta tiklash) bo'yicha arizalar quyidagi joylarda qabul qilinadi: oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha ko'chirish va qayta tiklash ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasida; qolgan hollarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladigan Hududiy ishchi guruhlari orqali.	15 yanvardan 25 yanvargacha
7-bosqich	Oliy ta'lim muassasasi, vazirlik (idora) va Davlat komissiyasi arizalar yuzasidan qaror qabul qiladi va fuqaroga (yoki oliy ta'lim muassasasiga) javob xati yo'llaydi.	25 yanvardan 15 fevralgacha
8-bosqich	Qayta tiklash (uzrli sabablar bilan ko'chirish) masalasi ijobiy hal etilgan holda (tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasining xati asosida) oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan talaba darslarga qo'yiladi hamda ushbu oliy ta'lim muassasasi tomonidan talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasiga uning shaxsiy yig'ma jildini jo'natish uchun so'rovnoma yuboriladi.	15 fevraldan 25 fevralgacha
9-bosqich	Talabani talabalar safiga qabul qilish to'g'risidagi buyruq talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasidan uning shaxsiy yig'ma jildi olinib, to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirgandan so'ng chiqariladi.	1 martgacha

Izoh: Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish va qayta tiklashni amalga oshirish muddatlariga O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin».

5. 4-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining
buyrug‘i**

**Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash
tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-
sentabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3069]**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son
“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga
oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha
qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorigamuvofiq buyuraman:

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash
tizimi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Vazir I. MADJIDOV

Toshkent sh.,
2018-yil 9-avgust,
19-2018-son

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-
avgustdagi 19-2018-son buyrug‘iga
ILOVA

**Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash
tizimi to‘g‘risidagi**

NIZOM

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi
PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning
mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini
ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorigamuvofiq oliy
ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini
belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom 2018-2019 o‘quv yilida, shuningdek keyingi o‘quv yillarida
oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat
qilish hamda baholashda qo‘llaniladi.

2. Mazkur Nizom talablari qonun hujjatlariga muvofiq o‘quv jarayoni modul
tizimiga asoslangan oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va
baholashda qo‘llanilmaydi.

3. Talabalar oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan
birinchi mashg‘ulotda mazkur Nizom talablari bilan tanishtirilishi shart.

4. Talabalar bilimini baholashda malakaviy amaliyot, kurs ishi, fan (fanlararo) davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi, shuningdek magistratura bosqichida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar hamda magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha mazkur Nizomda belgilangan baholash mezonlari qo'llaniladi.

2-bob. Nazorat turlari va baholash mezonlari

1-§. Nazorat turlari

5. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

6. Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida o'tkaziladi.

7. Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2-martagacha o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat turini o'tkazish shakli va muddati fanning xususiyati va fanga ajratilgan soatlardan kelib chiqib tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.

8. Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va mazkur kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

9. Semestr davomida haftasiga 2 akademik soatdan (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida 4 akademik soatdan) kam bo'lgan fanlar bo'yicha oraliq nazorat turi o'tkazilmaydi.

10. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

11. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida (tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida fan yakunida) tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

12. Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli tegishli fan bo'yicha kafedra tomonidan belgilanadi.

13. Yakuniy nazorat turi oliy ta'lim muassasasining tegishli fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqiladigan hamda o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadigan Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

14. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlari obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov yoki obyektiv tizimlashtirilgan imtihon shakllarida o'tkazilishi mumkin.

2-§. Talabalar bilimini baholash mezonlari

15. Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikr lay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

16. Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning o'zlashtirishini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

3-bob. Talabalar bilimni baholash

17. Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

18. Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

19. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish, shuningdek talabalarning bilimni baholash tegishli kafedra mudiri tomonidan tashkil etiladigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya tarkibi tegishli fan professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Komissiya tarkibiga kelishuv asosida boshqa tashkilotlarning soha mutaxassislari ham jalb qilinishi mumkin.

20. Oliy ta'lim muassasasida nazorat turlarini o'tkazilishi tegishli oliy ta'lim muassasasining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda

o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

21. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

22. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

23. Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

24. Bir kunda 1 tadan ortiq fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish kamida 2 kun oralig'ida belgilanishi lozim.

25. Bitiruvchi kurs bo'lmagan talabalar kuzgi semestr natijalari bo'yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo'lgan hollarda talabaga bir oygacha, bahorgi semestr natijalari bo'yicha 3 tagacha fandan (fanlardan) akademik qarzdorligi bo'lgan talabaga tegishli fan (fanlar) bo'yicha oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turlarini yangi o'quv yili boshidan qayta topshirish uchun 1 oy muddat beriladi.

Bitiruvchi kurs talabalariga bahorgi semestr natijalari bo'yicha o'zlashtirmagan fandan (fanlardan) qayta topshirish uchun yakuniy davlat attestatsiyasi boshlangunga qadar ruxsat beriladi.

Fanlardan akademik qarzdorligi 4 ta va undan ko'p bo'lgan talabalarga qayta topshirishga ruxsat berilmaydi va ular oliy ta'lim muassasasi rektorining (boshlig'ining, filial direktorining) buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi.

26. Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2-martadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

27. Berilgan muddat davomida mavjud bo'lgan qarzdorlikni topshira olmagan talaba bo'yicha fakultet dekani bildirgi bilan oliy ta'lim muassasasi rektorini

(boshlig‘ini, filial direktorini) xabardor qiladi va ushbu talaba rektor (boshliq, filial direktori) buyrug‘i asosida kursdan qoldiriladi.

28. Talaba uzrli sabablarsiz malakaviy amaliyotga qatnashmagan, shuningdek malakaviy amaliyot yakunlari bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va kursdan qoldiriladi.

29. Kursda qoldirilgan talaba fanni (fanlarni) o‘zlashtirmagan semestr boshidan to‘lov-kontrakt asosida mazkur o‘quv yilining tegishli semestri uchun tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq o‘qishni davom ettiradi.

30. Baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellatsiya komissiyasiga apellatsiya berish huquqiga ega.

31. Apellatsiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o‘qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to‘rt nafar a‘zo kiritiladi.

32. Talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, baholash natijasi e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellatsiya Apellatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

33. Talabaning apellatsiyasini ko‘rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

34. Apellatsiya komissiyasi talabaning apellatsiyasini ko‘rib chiqib, uning natijasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtira olmaganini ko‘rsatiladi.

Apellatsiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta‘minlaydi.

4-bob. Baholash natijalarini qayd qilish

35. Talabalar bilimni baholash tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o‘qituvchi qo‘shimcha ravishda talabalar bilimni baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi Jurnalda talabaga qo‘yilgan baholarni shu kunning o‘zida qayd etib boradi. Agar talabaning bilimni baholash yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, bunda professor-o‘qituvchi talabalarning natijalarini 3 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jurnalga qayd etishi lozim.

36. Nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimi “3” (qoniqarli) yoki “4” (yaxshi) yoxud “5” (a‘lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

37. Talaba nazorat turi o‘tkazilgan vaqtda uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga “0” belgisi yozib qo‘yiladi.

38. Jurnal tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi, kafedra mudiri va fakultet dekani tomonidan imzolanadi hamda fakultet dekanatida saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun fakultet dekani mas'ul hisoblanadi.

39. Talabalarning yakuniy nazorat turi bo'yicha baholari Jurnalga qayd etilganda, shu kunning o'zida talabaning Baholash daftariga ham yozib qo'yilishi kerak.

40. Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

41. Jurnalning o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq yuritilishi, shuningdek undagi baho va boshqa ma'lumotlarga asossiz o'zgartirishlar kiritilmasligi uchun fakultet dekani va tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi mas'ul hisoblanadi.

42. Tegishli o'quv yili yakuni bo'yicha ishchi o'quv rejadagi fanlar bo'yicha "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholangan talaba oliy ta'lim muassasasi rektorining (boshlig'ining, filial direktorining) buyrug'iga asosan keyingi kursga o'tkaziladi.

43. Baholash natijalari kafedra yig'ilishlari, fakultet va oliy ta'lim muassasasi Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

44. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirishini baholash tizimini 5 baho yoki 100 ballik tizim va ilg'or xorijiy davlatlar oliy ta'lim tizimida qo'llaniladigan baholash tizimiga qiyosiy taqqoslash hamda ularga o'tkazish mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq jadvallar asosida amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoida

45. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qurilish vazirligi, "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati, Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi hamda Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizamga

ILOVA

1-jadval

Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish					
JADVALI					
5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala
5,00 — 4,96	100	4,30 — 4,26	86	3,60 — 3,56	72
4,95 — 4,91	99	4,25 — 4,21	85	3,55 — 3,51	71
4,90 — 4,86	98	4,20 — 4,16	84	3,50 — 3,46	70
4,85 — 4,81	97	4,15 — 4,11	83	3,45 — 3,41	69
4,80 — 4,76	96	4,10 — 4,06	82	3,40 — 3,36	68
4,75 — 4,71	95	4,05 — 4,01	81	3,35 — 3,31	67
4,70 — 4,66	94	4,00 — 3,96	80	3,30 — 3,26	66
4,65 — 4,61	93	3,95 — 3,91	79	3,25 — 3,21	65
4,60 — 4,56	92	3,90 — 3,86	78	3,20 — 3,16	64
4,55 — 4,51	91	3,85 — 3,81	77	3,15 — 3,11	63
4,50 — 4,46	90	3,80 — 3,76	76	3,10 — 3,06	62
4,45 — 4,41	89	3,75 — 3,71	75	3,05 — 3,01	61
4,40 — 4,36	88	3,70 — 3,66	74	3,00	60
4,35 — 4,31	87	3,65 — 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori

Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalar hamda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom 1-ilovaga muvofiq;

Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom 2-ilovaga muvofiq;

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risida Nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

(1-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida» 2010 yil 18 iyundagi 118-son qarori («O'zbekiston Respublikasi QHT», 2010 yil, 24-25-son, 195-modda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Vazirliklar va idoralar bir oy muddatda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim, ilm-fan va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,

2017 yil 20 iyun,

393-son

**Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga
1-ILOVA**

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Nizom harbiy ta'lim muassasalariga va O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi.

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

2. Oliy ta'lim muassasalari qabulni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalariga muvofiq amalga oshiradilar.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi, sirtqi, maxsus sirtqi va kechki (smenali) ta'lim shakllariga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalari doirasida hamda qabul kvotalaridan tashqari abituriendlarni o'qishga qabul qilish Davlat komissiyasi tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriendlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriendlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Oldingi tahrirga qarang.

Tanlov har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, o'qitish tillari va shakllariga ko'ra alohida o'tkaziladi. Ayrim yo'nalishlar bo'yicha hududlar kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladi.

(3-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Abituriendlarga oliy ta'lim muassasalarining uchtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishida tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lganlar alohida ajratilgan kvotalar doirasida, tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tanlovda ishtirok etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarining hamda Milliy gvardiyaning xizmatdagi xodimlarining farzandlari ular uchun alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, yetarli ball to‘plagan taqdirda tanlangan birinchi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga tavsiya etiladi.

(3-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 avgustdagi 470-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2020 y., 09/20/470/1149-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab, harbiy qism qo‘mondonligining tavsiyanomalariga ega bo‘lganlar va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, kontrakt bo‘yicha serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarining hamda Milliy gvardiyaning xizmatdagi xodimlarining farzandlari ular uchun alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, o‘qishga tavsiya etilmagan taqdirda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tish jarayonida tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida umumiy tartibda to‘plagan ballari bilan tanlovda ishtirok etadi.

(3-bandning sakkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 avgustdagi 470-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2020 y., 09/20/470/1149-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Test sinovlarini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi (keyingi o‘rinlarda Davlat test markazi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

(3-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018 y., 09/18/261/1036-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda oliy ta’lim muassasalari rektorlari (filial direktorlari) joylarda kirish imtihonlarini (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) o‘tkazish uchun zarur sharoitlarni ta’minlaydilar.

(3-bandning oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

4. Test sinovlari uch tilda — o‘zbek, rus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi oliy ta’lim muassasalarida qoraqalpoq tillarida o‘tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tili, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Abiturient test sinovlarini va kasbiy (ijodiy) imtihonni oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradi. Bunda o'zbek guruhlariga hujjat topshirgan abiturient o'z arizasiga asosan test sinovlarini o'zbek tilida lotin yoki kirill alifbosida topshirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va test bo'yicha ularga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Abiturient chet tillar sifatida ingliz, nemis, fransuz tillaridan biri bo'yicha test sinovi topshiradi. Abiturient o'qigan chet tilidan qat'i nazar, xohlagan (ingliz, nemis, fransuz) chet tilidan test topshirishi mumkin.

Agar umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasida ingliz, nemis yoki fransuz tillari o'tilmasdan boshqa chet tillari o'qitilgan holda, shu chet tilidan test sinovi o'rniga ko'p balli tizim bo'yicha imtihon topshiriladi.

Oliy ta'limning ayrim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda qo'shimcha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar takliflari asosida Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

4¹. Abiturientlardan alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlariga qabul test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha imtihon dasturlari va har bir fan xususiyati hisobga olingan holda baholash mezonlari, shuningdek, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abiturientlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmaydi, ular navbatdagi imtihonlarga qo'yilmaydi hamda o'qishga qabul qilinmaydi.

(4¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

5. Ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ta'lim yo'nalishlariga qabul ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar va test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Davlat test markazi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu ta'lim yo'nalishlariga arizalar ko'rsatilgan tillarda o'rta ta'lim muassasasini tugatgan abituriyentlar yoki ko'rsatilgan tillarda umumiy o'rta ta'lim muassasasini tugatib, akademik litsey (kasb-hunar kolleji) diplomiga ega bo'lgan abituriyentlardan qabul qilinadi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar, ko'p balli imtihon baholari va Davlat komissiyasi tasdiqlagan test sinovlari natijalarining umumiy yig'indisi shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

6. Umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tilini (ingliz, nemis va fransuz tillari o'qitilmagan holda) chet tili sifatida o'qigan abituriyentlar mazkur tildan ko'p balli baho tizimi bo'yicha imtihon topshiradilar, qolgan fanlar bo'yicha esa test sinovlaridan o'tadilar.

(6-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tili bilan birgalikda ingliz, nemis va fransuz tillari ham o'qitilgan holda (ushbu fanlar abituriyent diplomi ilovasida (attestatida) mavjud bo'lganda) abituriyent arizasiga asosan u chet tilini test shaklida yoki ispan, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tilidan ko'p balli baho tizimi bo'yicha imtihon topshiradi.

(6-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Mazkur qoida roman-german filologiyasi (ingliz, nemis va fransuz filologiyasi) yo'nalishi bo'yicha o'qishga kiradigan abituriyentlarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Kasbiy (ijodiy) imtihon topshiriladigan ispan, turk, arab, fors, dari, hind, urdu, xitoy, koreys, uyg'ur, italyan, yapon tili bo'yicha fan dasturi va baholash mezonlari ushbu tillar o'qitiladigan tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilib,

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi va joriy etiladi.

(6-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

7. Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy (ijodiy) va ko'p balli imtihonlarni o'tkazish 1 va 2-ilovalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

8. Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilish 3-ilovada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

9. Respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan 3 yillik «Oliy hamshiralik ishi» ta'lim yo'nalishiga qabul faqat o'rta maxsus, kasb-hunar tibbiy ma'lumot (hamshiralik, akusherlik ishi va feldsherlik) negizida amalga oshiriladi. Mazkur yo'nalish bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda qo'shimcha kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. Sirtqi, maxsus sirtqi ta'limga talabalarni qabul qilish:

sirtqi ta'lim shaklida — umumiy o'rta (10-11-sinlar negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumoti to'g'risidagi tegishli hujjatga ega bo'lgan va sirtqi ta'limga kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar hisobidan;

maxsus sirtqi ta'lim shaklida — faqat mos yoki turdosh ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga va ta'lim yo'nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogik yo'nalishlar uchun pedagogik stajga) hamda ishlab turgan soha tashkilotlaridan berilgan tavsiyanomaga ega bo'lgan, kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10¹. Oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan kirish test sinovlari yoki oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) orqali tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bunda:

oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatining sirtqi ta'lim shakliga test sinovlari orqali o'qishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-son

qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi;

oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining sirtqi ta‘lim shakliga oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan kirish imtihonlari (kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) orqali tanlov asosida o‘qishga qabul qilish mazkur Nizomga 5-ilovada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10². Oliy ta‘lim muassasalari uchun belgilangan qabul kvotalari tarkibida hududlar kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan ta‘lim yo‘nalishlariga qabul muayyan hududda doimiy yashaydigan (pasportdagi ma‘lumoti bo‘yicha), umumiy o‘rta (10-11-sinflar negizida), o‘rta maxsus, kasb-hunar ma‘lumoti to‘g‘risidagi tegishli hujjatga ega bo‘lgan va kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)dan muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi.

10³. Oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta‘lim yo‘nalishlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 iyundagi 417-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim muassasalariga nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘shimcha davlat granti kvotalari asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

10⁴. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning ofitserlari, kontrakt bo‘yicha serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmat majburiyatini (xizmat majburiyatini) bajarishda halok bo‘lgan, shuningdek, harbiy xizmat majburiyatini (xizmat majburiyatini) bajarish chog‘ida yarador bo‘lishi, kontuziya, shikastlanish yoki kasalliklar oqibatida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilarning (Milliy gvardiya xodimlarining) farzandlari vazirliklar yoki idoralarning tegishli tavsiyanomalari asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari davlat granti asosida oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatiga (ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limdan tashqari) o‘qishga tanlovsiz qabul qilinadilar.

(10⁴-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 avgustdagi 470-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.08.2020 y., 09/20/470/1149-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10⁵. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarning xizmatdagi ofitserlari, kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan serjantlar va oddiy askarlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarining farzandlari uchun oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta‘lim shaklidagi ta‘lim yo‘nalishlariga

davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotalarining besh foizi va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining xizmatdagi harbiy xizmatchilari hamda xodimlarining farzandlari uchun ikki foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul kvotalari ajratiladi.

Ajratilgan davlat granti asosidagi qo‘shimcha (besh va ikki foizli) kvota o‘rinlariga talabalikka qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirliklar va idoralarining belgilangan shakldagi tavsiyanomalariga ega bo‘lgan abituriyentlarning kirish imtihonlari natijalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ajratilgan davlat granti asosidagi qo‘shimcha (besh va ikki foizli) kvota o‘rinlariga qabul qilinmagan abituriyentlar to‘plagan ballari bilan o‘zlari tanlagan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadilar.

(10⁵-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 avgustdagi 470-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.08.2020 y., 09/20/470/1149-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10⁶. Terrorizm, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta‘minlash chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining tavsiyanomasi asosida belgilangan qabul kvotalaridan tashqari davlat granti asosida O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga (ikkinchi ta‘limdan tashqari) kirish imtihonlarisiz qabul qilinadilar.

10⁷. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda munosib hissa qo‘shgan, xizmat yoki ilmiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan ichki ishlar organlarining amaldagi xodimlari farzandlariga oliy ta‘lim muassasalari bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga (ikkinchi ta‘limdan tashqari) o‘qishga kirish uchun davlat granti asosida oliy ta‘lim muassasalariga umumiy belgilangan qabul kvotalarining uch foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul kvotalari ajratiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlarini ajratilgan uch foizli kvotalar doirasida oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining tavsiyanomasiga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi hamda o‘rinlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari bo‘yicha to‘plagan ballardan kelib chiqib, abituriyent kirish imtihonlarining eng yuqori balidan kamida o‘ttiz foizini to‘plagan taqdirda, ketma-ketlik tartibida taqsimlanadi.

Ajratilgan uch foizli davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul kvotalariga qabul qilinmagan abituriyentlar to‘plagan ballari bilan tanlagan bakalavriyat ta‘lim yo‘nalishlarida umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadilar.

(10⁶ va 10⁷-bandlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10⁸. Oliy ta‘lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan «Mehribonlik» uyi va Bolalar shaharchasining bitiruvchilari bo‘lgan chin yetimlar uchun qo‘shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosidagi qabul kvotalari ajratiladi.

(10⁸-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 dekabrda 1022-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.12.2019 y., 09/19/1022/4181-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10⁹. Respublika oliy ta‘lim muassasalariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun qo‘shimcha davlat granti asosida qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi.

Davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari bo‘yicha talabalikka O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining belgilangan shakldagi tavsiyanomalariga ega bo‘lgan abituriyentlar test sinovlari natijalariga muvofiq qabul qilinadi.

(10⁹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 iyundagi 402-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020 y., 09/20/402/0800-son)

2-bob. Xorijiy fuqarolarni qabul qilish

11. Oliy ta‘lim muassasalariga xorijiy fuqarolarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» 2008 yil 4 avgustdagi 169-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Respublika fuqarolarini xorijiy oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga jo‘natish davlatlararo shartnomalar va Davlat komissiyasining tegishli qaroriga, oliy ta‘lim muassasalararo shartnomalarga hamda fuqarolarning tashabbusiga asosan amalga oshiriladi.

3-bob. Hujjatlarni qabul qilish

Oldingi tahrirga qarang.

12. Oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishga qabulni sifatli tashkil etish maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida qabul komissiyalari tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar tomonidan belgilangan tartibda qabul komissiyasi raisi, uning o‘rinbosari va qabul komissiyasi kotiblari tayinlanadi. Bunda oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) lavozimi bo‘yicha qabul komissiyasiga raislik qiladi.

Qabul komissiyalari a‘zolarining vazifalari qabul komissiyasi raisi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun abituriyentlar doimiy (vaqtincha) ro‘yxatda turgan joyidan qat’i nazar, istalgan oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarning asl nusxasini taqdim etadi:

fuqarolik pasporti yoki ichki ishlar bo‘limlari tomonidan berilgan 09-shakl bo‘yicha jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, pasport seriyasi va raqami ko‘rsatilgan ma’lumotnoma;

pasport yoshiga yetmaganlar uchun tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;

umumiy o‘rta ta’lim (11-sinf negizida) yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjat (ilovasi bilan);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozga ega bo‘lgan abituriyentlar imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat;

Oldingi tahrirga qarang.

test sinovlari tashkil etilayotgan o‘quv yilidan avvalgi yillarda ta’lim muassasalarini tugatgan abituriyentlar (nogironligi bo‘lgan yoki to‘liq davlat ta’minotidagi shaxslar bundan mustasno) test sinovlarida ishtirok etish uchun bazaviy hisoblash miqdorining yarim baravari miqdorida to‘lovni amalga oshirganligi to‘g‘risida to‘lov varaqasi (kvitansiya).

(12-bandning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 dekabrda 1046-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son)

Abituriyentdan qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

To‘liq davlat ta’minotidagi yetim bolalar va ko‘zi ojizlar toifasiga kiruvchi shaxslar ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatlarni qabul komissiyasiga taqdim etadi.

To‘liq davlat ta’minotidagi yetim bolalar toifasiga «Mehribonlik uylari»da yashab ta’lim olgan, 18 yoshga to‘lmagan, otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki sud qaroriga binoan vafot etgan deb e‘lon qilingan bolalar kiradi.

Oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyent haqidagi zarur ma’lumotlarni Davlat test markazining maxsus dasturiga kiritib abituriyentga asl hujjatlarni qaytaradi va QR-kod (matritsali shtrix kod) qo‘yilgan abituriyentning qayd varaqasini ikki nusxada chop etib, abituriyentga beradi. Abituriyent ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirib, qayd varaqasini o‘z imzosi bilan tasdiqlaydi, bir nusxasini

o'zida olib qoladi va ikkinchi nusxasini oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga qaytarib beradi.

Abiturientlarni ro'yxatdan o'tkazish oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyalari tomonidan har yili 15 iyundan 15 iyulgacha (shu kuni ham) bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

Arizalar onlayn tarzda ham qabul qilinishi mumkin.

Harbiy qismlar qo'mondonligi tavsiyanomalari ular berilgan kundan hamda muddatli harbiy xizmatni tugatgan davridan boshlab uch yil mobaynida haqiqiy hisoblanadi (oliy ta'lim muassasasiga talabalikka qabul qilinganligi to'g'risidagi rasmiy buyruq bo'lsa, imtiyozdan takroran foydalanish mumkin emas).

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mavjud bo'lganda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi abiturientning hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga haqli emas.

Abiturientlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan muddatlar tugagandan so'ng hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish qat'iy man qilinadi.

Abiturient tomonidan taqdim etilgan (topshirilgan) hujjatlarning qalbakiligi aniqlansa, u holda abiturient kirish imtihonlaridan (talabalikka qabul qilingan bo'lsa oliy ta'lim muassasasi talabalari safidan) chetlashtiriladi hamda bu haqda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar qilinadi.

Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari 20 iyulgacha bo'lgan muddatda Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga ta'lim yo'nalishi, o'quv shakli va tili ko'rsatilgan holda, abiturientlarning soni haqida belgilangan shakldagi ma'lumotni imtiyozga ega bo'lganlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qo'shib taqdim etadilar.

Talabalikka tavsiya etilgan abiturientlar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga mazkur bandning to'rtinchi xatboshidagi hujjatlarni taqdim etadi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

4-bob. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

13. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar abiturientlar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tish jarayonida tanlagan birinchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan test sinovlari o'tkazilishiga qadar 11 iyuldan 20 iyulgacha, test majmualarida fanning o'rniga qarab uning uchun nazarda tutilgan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizigacha bo'lgan oraliqda yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

(13-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari bo'yicha tushgan norozilik (apellyatsiya) arizalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan 21 iyulga qadar bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalari Davlat test markaziga oliy ta'lim muassasalari tomonidan 22 iyulgacha taqdim etiladi.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018 y., 09/18/261/1036-son)

5-bob. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish

Oldingi tahrirga qarang.

14. Test sinovlari kunduzgi va kechki (smenali) ta'lim shakllari uchun har yili iyul — avgust oylarida, qoida tariqasida, kuniga ikki smenada o'tkaziladi. Davlat komissiyasi tomonidan test sinovlarini o'tkazishning aniq muddatlari belgilanadi.

Abiturientning test sinovidan to'plagan ballari haqidagi ma'lumot test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, uning talabalikka tavsiya etilgani yoki etilmagani bo'yicha belgilangan tartibda tasdiqlangan tanlov natijasi test sinovlarini o'tkazish jarayoni to'liq yakunlanganidan keyin bir hafta muddat ichida Davlat test markazining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

15. Oliy ta'lim muassasasida tanlangan ta'lim yo'nalishiga qarab abiturientlar belgilangan tartibda tasdiqlangan fan majmualari bo'yicha test sinovlaridan o'tadilar.

(15-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Test topshiriqlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

«Jurnalistika», «Xalqaro jurnalistika» va «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari bilan bir qatorda (0 bilan 63 ballgacha bo'lgan oraliqda baholanuvchi) kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Fanlar majmuasi Ona tili va adabiyoti (o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, qoraqalpoq tili va adabiyoti), Matematika, Fizika, Kimyo, Biologiya, Tarix, Geografiya, Chet tili (ingliz tili, nemis tili, fransuz tili) fanlari bo'yicha shakllanadi.

(15-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Davlat test markazi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi V1 va undan yuqori darajadagi malaka sertifikatga ega bo'lgan abituriyentlarga ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatni qabul jarayonida taqdim etganda oliy ta'lim muassasalari bakalavriyatining kirish test sinovlari fanlar majmuasiga chet tili fani kiritilgan yo'nalishlarda mos chet tili fanidan belgilangan maksimal ball beriladi va ular chet tili fanidan test sinovi (kasbiy (ijodiy) imtihon) topshirmaydi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018 y., 09/18/261/1036-son)

Oldingi tahrirga qarang.

16. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga o'qishga qabul qilish uchun kirish test sinovlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom asosida amalga oshiriladi.

(16-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018 y., 09/18/261/1036-son)

6-bob. Abiturientlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish, o'qish uchun to'lov tartibi va miqdori

Oldingi tahrirga qarang.

17. Abiturientlarni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan qabul kvotalari doirasida yagona qabul qoidalari asosida kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)ning ballar reytingi bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

(17-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Davlat komissiyasi tomonidan abituriyentlarni to'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin oliy ta'lim muassasasi bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda kontraktlar rasmiylashtiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Belgilangan namunadagi kontrakt blankalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan abituriyentlarning oliy ta'lim muassasalariga talabalikka tavsiya etilganligi e'lon qilingan kundan boshlab beriladi va yuridik shaxslar uchun rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan holda 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi.

(17-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Davlat komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abituriyentlar uchun to'lov har yili kontrakt shartlarida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kontrakt shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularning amalga oshirilishi tartibi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Oliy ta'lim muassasalarining takliflariga muvofiq, ularning imkoniyatlari, tanlov va to'plangan ballar miqdoridan kelib chiqib, Davlat komissiyasi qarori asosida abituriyentlar to'lov-kontrakt bo'yicha belgilangan kvotadan tashqari qo'shimcha ravishda o'qishga qabul qilinishi (keyingi o'rinlarda qo'shimcha qabul deb ataladi) mumkin.

Qo'shimcha qabulni amalga oshirish takliflari oliy ta'lim muassasalari tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda 15 oktabrga qadar Davlat komissiyasiga kiritiladi.

Davlat komissiyasi oliy ta'lim muassasalarining imkoniyati, tanlov va to'plangan ballar miqdoridan kelib chiqib, oshirilgan to'lov-kontrakt sharti bilan abituriyentlarni qo'shimcha qabul qilish ko'rsatkichlari yuzasidan 20 oktabrga qadar qaror qabul qiladi.

Bunda:

Oldingi tahririga qarang.

ballar ketma ketligi bo'yicha ro'yxatdagi oldingi abituriyent qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qishni arizasi bilan rad etgan holda yoki kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalari e'lon qilingan kundan boshlab bir oy muddatda ariza bermaganda ro'yxatdagi keyingi abituriyent qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etiladi;

(18-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish oliy ta'lim muassasasining bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holdagi takliflariga (qabul ko'rsatkichlari bo'yicha) binoan Davlat komissiyasi qarori asosida oliy ta'lim muassasalarining imkoniyati inobatga olinib amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

19. Oliy ta'lim muassasalari qo'shimcha qabulni Davlat komissiyasi qarori bilan belgilangan ko'rsatkichlarga muvofiq to'plagan ballari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan va asosiy qabul chegaralariga 4 ballgacha yetmagan abituriyentlar orasidan ballar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiradilar.

(19-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oshirilgan to'lov-kontrakt miqdori amalda o'rnatilgan to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

to'plagan ballari tasdiqlangan to'lov-kontrakt bo'yicha qabul kvotalari chegarasiga bir ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — 1,5 barobar;

1,1 balldan 2 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,0 barobar;

2,1 balldan 3 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,5 barobar;

3,1 balldan 4 ballgacha yetmaganlar uchun — 3,0 barobar.

Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu miqdorlar bo'yicha to'lov-kontrakt shartlari birinchi o'quv yili uchun to'liq bajarilgandan so'ng abituriyent oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

20. Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)da to'plagan natijalari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo'lmagan, asosiy kvotalar doirasida va Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qo'shimcha o'rinlarga qabul qilinmay qolgan va o'qish istagini bildirgan abituriyentlarga birinchi o'quv yiliga amalda o'rnatilgan to'lov-kontrakt miqdoriga nisbatan 10 barobar va undan ortiq oshirilgan to'lov-kontrakt miqdorida to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam ball to'plagan abituriyentlarga birinchi o'quv yiliga amaldagi oshirilgan to'lov-kontraktning ta'lim yo'nalishi bo'yicha belgilangan eng yuqori miqdorining 2 barobariga teng to'lovni amalga oshirish sharti bilan o'qishga kirish huquqi beriladi.

Test sinovlari natijasi bo'yicha yetarli ball to'plamagan va oshirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qish istagini bildirgan barcha abituriyentlar uchun oshirilgan to'lov-kontraktning miqdori (barobari) kam bo'lgan ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyati beriladi. Bunda, abituriyent test topshirgan fanlar majmuasining (fanlarning blokda o'rni) mosligi bilan birgalikda uning doimiy yashash joyi yoki hujjat topshirgan oliy ta'lim muassasasi joylashgan hudud mezon etib belgilanadi.

Oshirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qish istagini bildirgan abituriyent Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlarini birinchi o'quv yili uchun to'liq bajargandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

21. Oliy ta'lim muassasalari qo'shimcha oshirilgan to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan abituriyentlar haqida ma'lumotni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Davlat test markaziga 1 noyabrga qadar taqdim etadilar.

Oldingi tahrirga qarang.

(21-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

22. Respublika oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha qabul qilingan talabalar birinchi o'quv yilini tugatgandan so'ng keyingi o'quv yilidan boshlab amalda o'rnatilgan bazaviy to'lov-kontrakt miqdori asosida o'qishini davom ettiradilar.

Oldingi tahrirga qarang.

7-bob. Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari hamda «Temurbeklar maktabi» bitiruvchilarini qabul qilish

(7-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 dekabrda 973-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 09/19/973/4123-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston o'quvchi yoshlarini rag'batlantirish choralari to'g'risida» 1993 yil 5 fevraldagi PF-555-son Farmonigamuvofiq hamda Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida» 2008 yil 13 oktabrdagi 226-son qaroriga 5-ilova bilan tasdiqlangan Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risidagi nizom hamda Respublika olimpiadalari, tanlovlari va sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi nizomlar asosida xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari va musobaqalari g'oliblari hamda Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 7 iyundagi 468-son qarorida nazarda tutilgan imtiyozlarni berish uchun mas'ul vakolatli organlar ta'sis etadigan maxsus guvohnomani olganlar Davlat

komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta'lim muassasalarining mos ta'lim yo'nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar

(23-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 21 avgustdagi 499-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020 y., 09/20/499/1199-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida» 1999 yil 10 iyundagi PF-2326-son Farmoniga muvofiq Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari bo'lgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mard o'g'lon» Davlat mukofotini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 21 noyabrdagi PQ-3402-son qaroriga muvofiq «Mard o'g'lon» Davlat mukofoti sohiblari bo'lgan umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Oldingi tahririga qarang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va Davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 28 iyundagi PQ-4375-son qaroriga muvofiq:

«Temurbeklar maktabi» bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi;

«Temurbeklar maktabi»ni imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga, tarkibida «Temurbeklar maktabi» bo'lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo'yicha oliy harbiy yoki ixtisoslashtirilgan bilim yurtlariga test sinovlarisiz, harbiy professional tanlash tadbirlarini muvaffaqiyatli o'tish natijalari bo'yicha kirish huquqi beriladi.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 6 dekabrda 973-sonli qaroriga asosan to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 09/19/973/4123-son)

Oldingi tahrirga qarang.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va tegishli vazirliklar, idoralar tomonidan har yili o‘tkaziladigan pedagogika o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalari bitiruvchilari va ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining «Tarbiyachi» respublika tanlovi g‘olibi, tibbiyot muassasalari hamshiralarning «Hamshira» respublika tanlovi g‘olibi, «Nihol» mukofoti sovrindorlari mazkur vazirliklar, idoralar va jamg‘armalar taqdimnomalariga muvofiq Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta‘lim muassasalariga, mos ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

(23-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 21 avgustda 499-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020 y., 09/20/499/1199-son)

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga oliy ta‘lim muassasalariga imtiyozli qabul qilish maqsadida tavsiyanomalar berish bo‘yicha respublika komissiyasi taqdimnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasining qarori bilan doimiy yashash joyidagi oliy ta‘lim muassasalarining pedagogika ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)siz davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Is‘hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning butun o‘qish davrini a‘lo baholarga o‘qigan bitiruvchilari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining tavsiyasiga asosan Davlat komissiyasi qarori bilan oliy ta‘lim muassasalari bakalavriatining xorijiy til va adabiyoti, filologiya va tillarni o‘qitish ta‘lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz qo‘shimcha davlat grantlari asosida o‘qishga qabul qilinadilar.

Olimpiada fani, tanlovlar bilan oliy ta‘lim yo‘nalishlari o‘rtasidagi kasbiy muvofiqlik Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta‘lim muassasalari qabul komissiyalari olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalar g‘oliblarining arizalari haqidagi ma‘lumotlarni, ta‘lim yo‘nalishi, o‘quv shakli va tili ko‘rsatilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi orqali Davlat komissiyasiga 22 iyulgacha bo‘lgan muddatda taqdim etadilar. Davlat komissiyasi 31 iyulgacha g‘olib bo‘lganlar bo‘yicha tegishli vazirliklar, idoralarning taqdimnomasi asosida alohida qaror qabul qiladi.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Badiiy akademiyaning tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn yo‘nalishlari bo‘yicha respublika tanlovi hamda mazkur yo‘nalishlardagi xalqaro tanlovlarning g‘oliblariga Davlat komissiyasining qarori bilan tegishli oliy ta’lim muassasalarining kasbiy (ijodiy) imtihonlarida soha bo‘yicha eng yuqori ball belgilangan fandan maksimal ball olish imtiyozi beriladi.

Agar kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball bir nechta fanlardan belgilangan bo‘lsa, abituriyentga imtiyozli maksimal ball olish uchun fanlardan birini tanlash huquqi beriladi.

Agar ayrim ta’lim yo‘nalishlarida bitta fandan kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, abituriyentga mazkur fan bo‘yicha maksimal ball beriladi.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 21 avgustdagi 499-sonli qaroriga asosan xatboshilar bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2020 y., 09/20/499/1199-son)

8-bob. Muddatli harbiy xizmatni o‘tagan abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish

24. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgan fuqarolarni respublika oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tasdiqlangan nizom asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

24¹. Harbiy xizmatchilar orasidan yuqori natijalarga erishgan, har bir harbiy qismdan bittadan yosh harbiy xizmatchi harbiy qism qo‘mondonligi (rahbariyati) va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti tavsiyanomasiga muvofiq oliy ta’lim muassasalariga tasdiqlangan davlat granti kvotalariga qo‘shimcha ravishda, imtihonlarsiz qabul qilinadi.

(24¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

9-bob. O‘qishga qabul qilish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

25. Tanlov kirish imtihonlarining (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) fanlar majmuasi va undagi fanlar ketma-ketligining mosligi abituriyent belgilagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ketma-ketligi asosida o'tkaziladi.

Test sinovlari natijalari bo'yicha tanlovlarni o'tkazishning umumiy tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu oliy ta'lim muassasasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi va unga tanlagan ikkinchi va uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari ushbu ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi. Bunda abituriyentga tanlagan uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi va ikkinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lgan taqdirda, uning test sinovi natijalari faqat uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi;

abituriyentning to'plagan ballari u tanlagan birinchi, ikkinchi va uchinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmagan taqdirda, uning test sinovi natijalari birinchi bakalavriat ta'lim yo'nalishida e'lon qilinadi.

Bitta yoki ikkita bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlagan abituriyent, o'zi tanlagan ta'lim yo'nalishida tanlovda ishtirok etadi.

(25-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 iyuldagi 572-sonli qaroriga asosan birinchi — yettinchi xatboshlar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2019 y., 09/19/572/3407-son)

Davlat komissiyasining abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish to'g'risidagi qarori asosida oliy ta'lim muassasalari 25 avgustga qadar abituriyentlarni davlat grantlari bo'yicha talabalar safiga qabul qilish haqidagi buyruqlari rasmiylashtiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

To'liq davlat ta'minotidagi yetim bolalar (hujjat topshirgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'lov-kontrakt asosidagi qabul kvotalari doirasida belgilangan o'tish

ballini to'plagan bo'lsa) va ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchilar qabuli alohida davlat granti ajratilib Davlat komissiyasi qarori bilan amalga oshiriladi.

(25-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

To'lov-kontrakt asosida abituriyentlarni o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun kontraktga belgilangan mablag' miqdori 15 sentabrdan kechiktirilmay, belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarni 2 sentabrdan boshlab darslarga qatnashishga ruxsat etish to'g'risida oliy ta'lim muassasasining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

Qo'shimcha to'lov-kontrakt asosida o'qish istagida bo'lgan abituriyentlar Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muddatlarda ushbu miqdorlar bo'yicha to'lov-kontrakt shartlari birinchi o'quv yili uchun to'liq bajarilgandan so'ng abituriyent oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilinadi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

26. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

26¹. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi qarorlardan norozi bo'lganlar tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega.

(26¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga

1-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalarida yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish

TARTIBI

Oldingi tahrirga qarang.

1. Oliy ta'lim muassasalarida yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar (keyingi o'rinlarda kasbiy (ijodiy) imtihonlar deb ataladi) test sinovlari o'tkazilishiga qadar 11 iyuldan 20 iyulgacha o'tkaziladi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 apreldagi 261-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.04.2018 y., 09/18/261/1036-son)

2. Test sinovlariga qo‘shimcha tarzda nazarda tutilgan kasbiy (ijodiy) imtihonlar Davlat komissiyasi tasdiqlagan ta‘lim yo‘nalishlari ro‘yxati bo‘yicha o‘tkaziladi.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonlarning bosh maqsadi abituriyentlarning tanlangan mutaxassislik bo‘yicha o‘qish va keyinchalik ishlab ketish imkoniyatlarini aniqlash, ularning tanlangan fanlar bo‘yicha bilimlari va malakalari darajalarini, kasbiy ko‘nikmalarini, ijodiy va jismoniy qobiliyatlarini baholashdir.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha dastur, imtihonlar savollari va topshiriqlarining mazmuni umumiy o‘rta (11-sinf negizida), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari dasturlariga qat’iy muvofiqlashtirilgan bo‘lishi lozim. Sport fanlari bo‘yicha imtihonlar topshiriqlari abituriyentlarning alohida toifalari uchun (jinsi va yoshi bo‘yicha) belgilangan me‘yoriy talablarga muvofiq tuziladi.

5. Abituriyentlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlar qabul qilish uchun oliy ta‘lim muassasasida fan bo‘yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi.

Oliy ta‘lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlarni tashkil etish va o‘tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin rektorning buyrug‘i bilan oliy ta‘lim muassasasida tegishli fanlar bo‘yicha imtihonlarni tashkil etish va qabul qilish masalalari bo‘yicha tajribali, malakali va mas‘uliyatli o‘qituvchilar tarkibidan fan bo‘yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi;

ayrim hollarda oliy ta‘lim muassasasi fan bo‘yicha imtihon komissiyasi tarkibiga boshqa ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining asosiy ish joyi ma‘muriyatining tavsiyalariga binoan kiritilishiga yo‘l qo‘yiladi;

oliy ta‘lim muassasasi idoraviy bo‘ysunishiga qarab vazirlik (idora) bilan kelishgan holda fan bo‘yicha imtihon komissiyasining raisligiga nomzodni o‘z vaqtida tasdiqlash uchun Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga taqdim etadi;

«Oliy hamshiralik ishi» yo‘nalishi bo‘yicha imtihon komissiyalarining raislari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

imtihonlar tasdiqlangan jadvalga qat’iy rioya etilgan holda o‘tkaziladi;

imtihonlarga ajratiladigan vaqt oliy ta‘lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi;

abituriyentlarning yozma shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash kirish yozma imtihonlarini tekshirish va baholash uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Imtihonlar test sinovlari majmualaridagi fanning egallagan o‘rniga qarab belgilangan eng ko‘p ballning 0 dan 100 foizgacha bo‘lgan oralig‘ida, yagona ko‘p balli tizim bo‘yicha baholanadi.

Imtihonlarni baholash mezonlari har bir fanga ajratilgan umumiy ballar doirasida, abituriyentlarga qo'yilgan talablarning xususiyatlari hisobga olingan holda, oliy ta'lim muassasasining fan imtihon komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan fanlar bo'yicha dastur va baholash mezonlari tasdiqlanadi.

Agar imtihon ta'lim yo'nalishi doirasidagi qator mustaqil fanlar bo'yicha o'tkaziladigan bo'lsa, unda uni baholash uchun belgilangan ballarning umumiy miqdori, har bir fanning xususiyatlari hisobga olingan holda, differensial tartibda, uning tarkibidagi fanlarga bo'linadi.

Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin abituriyentlar e'tiboriga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan imtihon olinadigan fanlar dasturini, ularni baholash mezonlarini, maslahatlar va imtihonlar jadvalini ma'lum qiladi. «Oliy hamshiralik ishi» yo'nalishi bo'yicha ushbu tadbirlar Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Imtihonlar yakunlari ballar miqdori sifatida, tanlov tartibida imtihon varaqasiga va imtihon ro'yxatiga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Imtihon qaydnomalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan o'z vaqtida Davlat test markaziga taqdim etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

8. Jadval bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarga (imtihon bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilmaydi, ular navbatdagi imtihonlarga qo'yilmaydi hamda o'qishga qabul qilinmaydi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

9. Oliy ta'lim muassasasida kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko'rib chiqish uchun appelyatsiya komissiyasi ishi tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga

2-ILOVA

O'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlarini qabul qilish

TARTIBI

1. Ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) bilan kelishgan holda, qabul ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy imtihonlar va test sinovlari asosida amalga oshiriladi.

Bu ta'lim yo'nalishiga arizalar faqat umumiy o'rta ta'lim muassasasini yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasini ko'rsatilgan tillarda bitirgan abituriyentlardan qabul qilinadi.

2. Ko'p balli tizim bo'yicha kasbiy imtihonlar va test sinovlari asosida qabulni amalga oshiruvchi oliy ta'lim muassasalari ko'rsatilgan holda o'qitish tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib boriladigan ta'lim yo'nalishlarining ro'yxatini, kasbiy (ijodiy) imtihonlar va test sinovlari fanlarini Davlat komissiyasi belgilaydi.

3. Imtihon dasturi, savollar mazmuni va imtihonlar topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari dasturlariga qat'iy muvofiq bo'lishi lozim.

4. Abiturientlardan kasbiy (ijodiy) imtihonlarni qabul qilish uchun oliy ta'lim muassasasida belgilangan tartibda fanlar bo'yicha imtihon komissiyalari tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasasi idoraviy bo'ysunishiga qarab vazirlik (idora) bilan kelishilgan holda fanlar bo'yicha imtihon komissiyalarining raisligiga nomzodlarni o'z vaqtida tasdiqlash uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi.

Imtihonlar tasdiqlangan jadvalga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi.

Imtihonlarga ajratiladigan vaqt oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Imtihonlar test sinovlari majmualaridagi fanning egallagan o'rniga qarab (tegishli ravishda 93,0 ball, 63,0 ball yoki 33,0 ball) belgilangan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oralig'ida, yagona ko'p balli tizim bo'yicha baholanadi.

(5-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Imtihonlarni baholash mezonlari, har bir fanga ajratilgan umumiy ballar doirasida, oliy ta'lim muassasasining imtihon komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi imtihonlar boshlanishidan bir oy oldin, abituriyentlar e'tiboriga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan imtihon olinadigan fanlar dasturi, ularni baholash mezonlari, maslahatlar va imtihonlar jadvalini ma'lum qiladi.

6. Imtihonlar yakunlari ballar miqdori sifatida, tanlov tartibida imtihon varaqasiga va imtihon ro'yxatiga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi.

Imtihonlar natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi belgilangan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tasdiqlangan o'rinlar kvotasiga tanlov o'tkazadi.

Test sinovlari topshirilmaydigan ta'lim yo'nalishlarining kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan abituriyentlar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi majlisining bayonnomasi va oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan belgilangan kvota doirasida davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadilar.

7. Jadval bo'yicha imtihonga kelmagan abituriyentlar navbatdagi imtihonni topshirishga kiritilmaydi.

8. Oliy ta'lim muassasasida kasbiy imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) komissiyasining ishi tashkil etiladi.

9. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar adolatli va xolisona o'tkazilishini ta'minlash bo'yicha shaxsiy mas'uliyat oliy ta'lim muassasasi rektori va qabul komissiyasi mas'ul kotibi zimmasiga yuklanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriyatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga

3-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalariga ko'zi ojiz abituriyentlarni o'qishga qabul qilish TARTIBI

1. Ko'zi ojizlar toifasiga quyidagi abituriyentlar kiradi:

maxsus maktab-internatlar tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan o'rta ta'lim (11-sinf negizida) yetuklik attestatiga ega shaxslar;

imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari tomonidan ko'zi ojizlar uchun berilgan diplomga ega shaxslar;

9 yillik ko'zi ojizlar maxsus maktab internatida o'qigan va 3 yillik o'rta maxsus, kasb hunar ta'lim muassasasi diplomiga ega bo'lgan shaxslar;

umumiy o'rta ta'lim (11-sinf negizida) hujjati yoki akademik litsey (kasb-hunar kolleji) diplomiga ega bo'lgan ko'zi bo'yicha 1-guruh nogironligi to'g'risida belgilangan tartibda berilgan shakldagi ma'lumotnomasiga ega bo'lgan shaxslar.

2. Ko'zi ojiz abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga kirish chog'larida kirish imtihonlarini ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) tomonidan test sinovlari uchun

belgilangan fanlar majmuasiga mos keluvchi ko'p balli yoki ularga keltirilgan besh balli baholash tizimi bo'yicha, an'anaviy uslubda topshiradilar.

3. Fanlar bo'yicha kirish imtihonlarini o'tkazish shakli (yozma yoki og'zaki) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

4. Ko'zi o'z abiturientlar bilan tushuntirish ishlarini olib borish uchun oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan maxsus mas'ul xodim ajratiladi.

5. Oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi kirish imtihonlarini o'tkazish uchun fanlar bo'yicha komissiyalarni tashkil etadi.

6. Fan bo'yicha kirish imtihonlarining dasturlari umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlari dasturlariga to'la muvofiq holda tuziladi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

7. Kirish imtihonlarini o'tkazuvchi komissiya tarkibiga ko'zi o'zlar yoki nogironlar jamiyatining vakili kiradi.

8. Oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari ko'zi o'z abiturientlar uchun kirish imtihonlari fanlari bo'yicha maxsus tuzilgan jadvalga binoan maslahatlar tashkil etadilar.

9. Ko'rsatilgan abiturientlar toifasi uchun kirish imtihonlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan 26 iyulga qadar o'tkaziladi.

10. Mazkur toifaga kiradigan abiturientlar va kirish imtihonlari natijalari haqidagi ma'lumotlar 27 iyulga qadar Davlat komissiyasiga va Davlat test markaziga topshiriladi.

11. Kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan (ko'p balli tizimda baholanganda—maksimal ballning 55 foizidan yuqori ball olgan, besh balli baholash tizimida baholanganda — «3», «4» yoki «5» baho olgan) abiturientlar Davlat komissiyasi qarori asosida tanlovsiz, alohida ajratilgan o'rinlarga davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

Oldingi tahrirga qarang.

(4-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizomga

5-ILOVA

Oliy ta'lim muassasalarining sirtqi ta'lim shakliga o'qishga qabul qilish TARTIBI

1. O'qitishning sirtqi shakliga talabalikka qabul faqat to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

2. O'qitishning sirtqi shakliga kirish uchun hujjatlar har yili 1 iyuldan 30 iyulgacha bo'lgan muddatda qabul qilinadi.

3. Oliy ta'lim muassasasi ta'lim yo'nalishi (fan) bo'yicha imtihon komissiyasining raisligiga nomzodni o'z vaqtida tasdiqlash uchun bo'ysunuviga qarab tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim yo'nalishi (fan) bo'yicha imtihon komissiyasining raislari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

4. Kirish imtihonlari boshlanishidan oldin rektorning buyrug'i bilan tegishli fanlar bo'yicha imtihonlarni tashkil etish va qabul qilish uchun tajribali, malakali va mas'uliyatli professor-o'qituvchilar tarkibidan ta'lim yo'nalish (fan)lari bo'yicha imtihon komissiyasi tashkil etiladi.

5. Ayrim hollarda oliy ta'lim muassasasi ta'lim yo'nalishi (fan) bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari hamda boshqa ta'lim muassasalari o'qituvchilari asosiy ish joyi ma'muriyatining tavsiyalariga binoan kiritilishi mumkin.

6. O'qitishning sirtqi shakliga kirish imtihonlari dasturlari, baholash mezonlari hamda kirish imtihonlari bo'yicha ularga muvofiq keluvchi fanlar majmuasi oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik yoki idora bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi va kirish imtihonlari boshlanishidan oldin abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Kirish imtihonlari topshiriqlari umumiy o'rta (11-sinf negizida), o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi fanlarining o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

Sport fanlari bo'yicha imtihonlar topshiriqlari abituriyentlarning alohida toifalari uchun (jinsi va yoshi bo'yicha) belgilangan me'yoriy talablarga muvofiq tuziladi.

7. Kirish imtihonlari o'tkazilishidan bir hafta oldin abituriyentlarga oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi mas'ul kotibi imzolagan va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi muhri qo'yilgan va ushbu tartibga 1-ilovada namuna sifatida keltirilgan ruxsatnoma beriladi.

8. Kirish imtihonlarini tashkil etish va ularni joylarda adolatli o'tkazish mas'uliyati oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari raislari, fan bo'yicha imtihon komissiya raislari va ular tomonidan tayinlanadigan mas'ul xodimlarga yuklanadi.

9. Kirish imtihonlari har yili 16 avgustdan 25 avgustgacha bo'lgan muddatda o'tkaziladi.

Kirish imtihonlari kamida 3 ta fandan muayyan ta'lim yo'nalishida o'qitish tilida o'tkaziladi.

10. Pedagogika ta'lim yo'nalishlariga hujjat topshirayotgan abituriyentlarga kasbiy layoqatiga muvofiq kasb tanlashga ko'maklashish oliy ta'lim muassasalari tomonidan ochiq eshiklar kuni, karera kuni, mehnat yarmarkasi tadbirlarini o'tkazish, shuningdek, abituriyentlardan hujjat qabul qilish jarayonida fakultetlarda tashkil etilgan kasbga yo'naltirish xonalarda maslahatlar berish orqali amalga oshiriladi.

11. Imtihonlarga ajratiladigan vaqt imtihon dasturlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan belgilanadi.

12. Kirish imtihonlari o'tkaziladigan binoga kirishda abituriyent mikro kalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo'lsa, imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini auditoriyadan tashqariga chiqarsa, abituriyent imtihon o'tkazish tartibini buzgan hisoblanadi va ta'lim yo'nalishi (fan) bo'yicha imtihon komissiyasi raisi (a'zosi) tomonidan dalolatnoma tuzilib, u imtihondan chetlashtiriladi va o'qishga qabul qilinmaydi.

13. Imtihon jarayoni har bir guruhda kamida 2 nafar guruh nazoratchisi kuzatuvda komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan jadvalga qat'iy rioya etilgan holda o'tkaziladi.

14. Abituriyentlarning yozma (amaliy) shaklda bajargan imtihon ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Kirish imtihoni tugaganidan so'ng guruh nazoratchisi abituriyentlarning yozma (amaliy) imtihon ishlarini qabul qilib olish, har bir yozma (amaliy) ish va uning ushbu tartibga 2-ilovada namuna sifatida keltirilgan titul varag'iga identifikatsiya raqamlari (shifr)ni qo'yish hamda imtihon komissiyasi raisiga ushbu imtihon ishlarini tekshirishga berish uchun mas'ul hisoblanadi.

Yozma (amaliy) imtihon ishlariga qo'yilgan shifrlarning maxfiyligini ta'minlashga guruh nazoratchisi shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Yozma (amaliy) imtihon ishlarini shifrlash va qayta tiklash hamda ularni tekshirish va baholash maxsus ajratilgan xonalarda amalga oshiriladi.

Yozma (amaliy) imtihon ishlarini ob'ektiv tekshirish va baholash uchun mas'uliyat fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va a'zolariga yuklatiladi.

Yozma (amaliy) imtihon ishlari qabul komissiyalarining maxsus xonalarda bir yil saqlanadi va ushbu muddat o'tganidan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

15. Qabul komissiyalari faoliyati oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuviga ko'ra vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari yoki tegishli vazirlik va idoralar tomonidan vakolat berilgan xodimlar tomonidan kuzatib boriladi.

16. Imtihonlar, tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxati va ularga muvofiq keluvchi 3 ta fan majmualarida to'planishi mumkin bo'lgan maksimal 189,0 ballidan, har bir fanning o'rniga qarab uning uchun ajratilgan eng ko'p ballning 0 dan 100 foizgacha bo'lgan oraliqda baholanadi.

17. Imtihonlar natijalari ballar miqdori sifatida, titul varag'iga va qaydnomaga kiritiladi. Bu hujjatlarning har biri fan bo'yicha imtihon komissiyasi raisi va oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi hamda muhrlanadi.

18. O'qitishning sirtqi ta'lim shakli bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga muvofiq fanlar majmuasidagi har bir fan bo'yicha imtihon natijalari imtihon xususiyatiga qarab, imtihon o'tkazilganidan keyin 1 — 3 kun muddatda oliy ta'lim muassasasi rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

19. Oliy ta'lim muassasasida imtihonlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda norozilik (apellyatsiya) arizalarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi ishi tashkil etiladi.

Norozilik (apellyatsiya) arizalari imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

20. Jadval bo'yicha imtihonlarga (imtihon fani, bosqichi yoki turiga) kelmagan abituriyentlar uchun qayta imtihonlar o'tkazilmaydi va ular o'qishga qabul qilinmaydi.

21. Kirish imtihonlari natijalariga ko'ra abituriyentlarni talabalikka tavsiya etish to'g'risida oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i qabul qilinib, kirish imtihonlari qaydnomalari har yili 29 avgustga qadar bo'ysunuviga ko'ra tegishli vazirlik (idora)ga taqdim etiladi.

O'qitishning sirtqi shakliga talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlarni 2 sentabrdan boshlab darslarga qatnashishga ruxsat berish to'g'risida oliy ta'lim muassasasining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

O'qitishning sirtqi shakliga abituriyentlarni o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun shartnomada belgilangan mablag' miqdori 15 sentabrdan kechiktirilmay, belgilangan tartibda o'tkazilgandan so'ng, oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

22. Sirtqi ta'lim yo'nalishlariga qabul qilish to'g'risidagi qarorlardan norozi bo'lganlar belgilangan tartibda, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga (keyingi o'rinlarda magistratura deb ataladi) talabalarni qabul qilish tartibini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ushbu Nizom harbiy ta'lim muassasalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasiga, Toshkent davlat yuridik universitetiga, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari hamda ularning filiallariga tatbiq etilmaydi.

(1-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktabrdagi 886-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019 y., 09/19/886/3941-son)

2. Magistraturaga qabul oliy ta'lim muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan davlat grantlari va to'lov-kontrakt asosida qabul kvotalariga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Magistraturaga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) tomonidan kirish sinovlari natijalariga ko'ra, to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Magistraturaga qabul tegishli ta'lim yo'nalishi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan turdosh (magistraturaga qabul bo'yicha) oliy ta'lim yo'nalishlari ro'yxati bo'yicha bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

Bakalavr darajasiga yoki diplomli mutaxassis malakasiga ega bo'lgan shaxslar turdosh ta'lim yo'nalishlari ro'yxatidagi ixtisosliklarning birida tanlovda qatnashish huquqiga egalar.

Magistraturaga qabul barcha uchun (ham grantlar, ham to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, kirish sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan

abiturientlar ballar reytingi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Oldingi tahrirga qarang.

Tanlov har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha magistrlik mutaxassisligi, o'qitish tili va shakliga ko'ra alohida o'tkaziladi. Ayrim magistratura mutaxassisliklari bo'yicha hududlar kesimida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari kesimida maqsadli qabul kvotalari tasdiqlangan taqdirda, tanlov har bir hudud, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari (oliy ta'lim muassasasi) bo'yicha alohida o'tkaziladi.

(3-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4. Kirish sinovlari tegishli mutaxassislik o'qitiladigan tilda o'tkaziladi.

(4-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Magistraturada o'qitish tili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qabul ko'rsatkichlari doirasida hujjatlar qabul qilinishiga qadar vazirliklar va idoralar tomonidan belgilanadi va Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Abiturientlar magistraturaga kirish sinovlarini oliy ta'lim muassasasida o'qiydigan tilda topshiradi.

6. Magistraturaga qabul qilish ishlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq joriy o'quv yili uchun tayinlangan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi zimmasiga yuklanadi va magistraturaga qabul qilish ishlari bo'yicha qabul komissiyasi mas'ul kotibining o'rinbosari tayinlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va nomli davlat stipendiyalari sovrindorlari, Zulfiya nomidagi Davlat mukofotlari sohibalari, shuningdek «Mard o'g'lon» davlat mukofoti sohiblari bo'lgan oliy ta'lim muassasalari talabalari va bakalavr darajasiga ega yoshlar oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga bakalavriyatning ta'lim yo'nalishiga mos va turdosh mutaxassisliklarga tanlovdan tashqari alohida davlat grantlari asosida qabul qilinadilar.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

2-bob. Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish

8. Magistraturaga xorijiy fuqarolarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» 2008 yil 4 avgustdagi 169-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Hujjatlarni qabul qilish tartibi

9. Magistraturaga kirish imtihonlari boshlanishidan bir oy avval, oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi magistraturaga qabul qilish muddatlari, mutaxassisliklar nomlari va ajratilgan o‘rinlar haqidagi axborotni belgilangan tartibda e’lon qiladi.

10. Magistraturaga kirishda abituriyentlar (bakalavr darajasiga ega bo‘lganlar, diplomli mutaxassislar) oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

magistratura mutaxassisligi ko‘rsatilgan holda, oliy ta’lim muassasasi rektori nomiga ariza;

oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatning asl nusxasi (yoki diplomdan ko‘chirma — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarini davlat granti bo‘yicha o‘qib tugatganlar uchun) hamda unga ilova;

chop etilgan ilmiy maqola yoki tezislari (yoki ularga tenglashtirilgan hujjatlari) nusxasi (mavjud bo‘lgan holda);

3.5 x 4.5 hajmdagi 6 dona rangli fotosurat;

086-U-shakldagi tibbiy ma’lumotnoma;

Oldingi tahrirga qarang.

qonun hujjatlariga muvofiq o‘qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjatning asl nusxasi.

(10-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

11. Hujjatlar 1 iyuldan 30 iyulgacha qabul qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Hujjatlar taqdim etilishi jarayonida abituriyentlar pasportini shaxsan ko‘rsatadilar.

(12-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

13. Ko‘rsatib o‘tilgan hujjatlar mavjud bo‘lganda oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi abituriyentning hujjatlarini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

4-bob. Kirish sinovlari

Oldingi tahrirga qarang.

14. Magistraturaga kirish sinovi umumiy ballari quyidagilardan tashkil topadi: magistraturaga kirishda tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim darajasini belgilovchi maxsus fanlardan sinov o'tkaziladi (baholash mezonlari 0 balldan 100 ballgachani tashkil etadi);

chet tili (xorijiy filologiya, xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishlari bazasidagi mutaxassisliklar uchun ikkinchi chet tili) fani bo'yicha sinov o'tkaziladi (baholash mezonlari 0 balldan 50 ballgachani tashkil etadi);

oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining umumiy reytingi yoki o'zlashtirish ko'rsatkichi (o'zlashtirish tegishli ravishda 55 balldan 100 ballgacha bo'lgan diapazonda yuzdan bir aniqlikda, o'zlashtirgan fanlarining o'rtacha bali orqali ifodalanadi) aniqlanadi.

Xalqaro tan olingan chet tilini bilish darajasi haqidagi sertifikat (TOEFL bo'yicha kamida 72 yoki IELTS bo'yicha kamida 5,5 ball, TestDaF (TDN3), CEFR bo'yicha kamida V2) yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan Chet tilini bilish darajasi haqidagi V2 yoki S1 darajasidagi sertifikat taqdim etganlarga chet tilidan 50 ball qo'yiladi va ular chet tilidan kirish sinovida ishtirok etmaydi.

Magistraturaga o'qishga kirishda eng ko'p (maksimal) to'planishi mumkin bo'lgan ball — 250 ni tashkil etadi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

15. Abiturientlar quyidagi fanlardan yozma (yoki ijodiy) kirish sinovlari (maxsus test sinovlari) topshiradilar:

magistratura mutaxassisligiga muvofiq keluvchi ta'lim yo'nalishining maxsus fanlari (2 tagacha);

Informatika va axborot texnologiyalari;

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti;

chet tili (xorijiy filologiya, xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishlari bazasidagi mutaxassisliklar uchun ikkinchi chet tili).

16. Kirish sinovlari (maxsus test sinovlari) o'tkazish shakli va fanlar bo'yicha sinov dasturlari hamda abiturientlarning bilimlarini baholash mezonlari oliy ta'lim muassasasining rektori tomonidan tegishli vazirliklar, idoralar va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi va kirish sinovlari boshlanishidan bir oy avval abiturientlar e'tiboriga yetkaziladi.

Oldingi tahrirga qarag.

(16-banddan ikkinchi — to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan

chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

17. Kirish sinovlari (maxsus test sinovlari) 3 — 15 avgust kunlari o'tkaziladi.

18. Kirish sinovlari (maxsus test sinovlari) o'tkazilishiga qadar, oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan sinov fanlari bo'yicha maslahatlar tashkil etiladi. Maslahatlar jadvali oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqiladi va rektor tomonidan tasdiqlanadi.

19. Kirish sinovlarini o'tkazish uchun rektorning buyrug'i bilan har bir sinov fanlari bo'yicha komissiyalar tashkil etiladi. Fanlar bo'yicha komissiya raislari, oliy ta'lim muassasasining idoraviy bo'ysunishiga qarab, vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanadi.

20. Sinov fanlari bo'yicha komissiya tarkibi oliy ta'lim muassasasining yetuk va tajribali professor-o'qituvchilari tarkibidan tashkil etiladi. Zarur hollarda uning tarkibiga boshqa oliy ta'lim muassasasining o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

21. Sinov fanlari bo'yicha komissiya raislari zimmasiga quyidagi mas'uliyat yuklanadi:

kirish sinovlari sifatli o'tkazilishini ta'minlash maqsadida komissiya tarkibiga malakali, talabchan va adolatli professor-o'qituvchilarni jalb etish;

komissiya a'zolarining vazifalarini belgilash (maslahatlar berishni tashkil etish, imtihon savollarini tuzish, javoblarni baholash mezonlarini ishlab chiqish va boshqalar);

sinov jarayoniga rahbarlik qilish va nazorat etish.

22. Fanlar bo'yicha sinovlarni o'tkazish tartibi (o'qituvchilarni auditoriyalarga taqsimlash, javoblarni shifrlash hamda tekshirish va hokazolar) oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi.

23. Kirish sinovlarining natijalari, baholash mezonlariga muvofiq ball bilan belgilanadi va qaydnomalarga kiritiladi. Qaydnomalar fan bo'yicha imtihon komissiyasining a'zolari, qabul komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan imzolanadi va qabul komissiyasining raisiga taqdim etiladi.

24. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan abituriენტlarning sinov ishlari ularning shaxsiy hujjatlar yig'majildlariga tikib qo'yiladi.

O'qishga qabul qilinmaganlarning sinov ishlari 6 oy davomida saqlanadi, so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

25. Kirish sinovlari (maxsus test sinovlari)ni qayta topshirish man etiladi.

Magistraturaga mutaxassislik bo'yicha maxsus fandan kirish sinovi uchun belgilangan maksimal ballning 55 foizi va undan kam ball to'plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish sinovlariga kelmaganlar navbatdagi kirish sinoviga kiritilmaydi hamda magistraturaga qabul qilinmaydi.

26. Oliy ta'lim muassasasida belgilangan tartibda apellyatsiya (norozilik) komissiyasining ishi tashkil etiladi.

Abiturient sinov natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, sinov natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida sinov ishini apellyatsiya qilish haqidagi ariza bilan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi raisi yoki apellyatsiya (norozilik) komissiyasi raisiga murojaat etishi mumkin. Apellyatsiya haqidagi arizani ko'rib chiqish muddati ikki kundan oshmasligi lozim.

27. Magistraturaga ko'zi ojiz abiturientlarni qabul qilish Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

5-bob. Abiturientni to'lov-kontrakt asosida qabul qilish va o'qish uchun to'lov tartibi

28. Magistraturaga to'lov-kontrakt asosida qabul qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan qabul kvotalari doirasida yagona qabul qoidalari asosida kirish sinovlarining ballar reytingi bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Abiturientlarni to'lov-kontrakt asosida magistraturaga tavsiya etish to'g'risida Davlat komissiyasining qarori qabul qilingandan keyin oliy ta'lim muassasasi bilan yuridik yoki jismoniy shaxslar o'rtasida belgilangan tartibda kontrakt rasmiylashtiriladi.

Belgilangan namunadagi kontrakt blankalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan sinov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab beriladi va yuridik shaxslar uchun rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolangan holda 3 nusxada, jismoniy shaxslar uchun 2 nusxada rasmiylashtiriladi.

Davlat komissiyasi tomonidan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilgan abiturientlar uchun to'lov har yili kontrakt shartlarida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

Kontrakt shartlari va tomonlarning majburiyatlari, ularni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

6-bob. O'qishga qabul qilish tartibi

29. Davlat komissiyasining oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul qilish to'g'risidagi qarori 20 avgustdan kechikmay qabul qilinadi va u oliy ta'lim muassasalarida 25 avgustga qadar abiturientlarni davlat grantlari bo'yicha talabalar safiga qabul qilish haqidagi oliy ta'lim muassasalari rektorlarining buyruqlarini rasmiylashtirish uchun asos bo'ladi.

Davlat komissiyasining oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga qabul qilish to'g'risidagi qaroriga muvofiq to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan o'qish uchun belgilangan mablag' miqdori 15

sentabrda kechiktirilmay, belgilangan tartibda o‘tkazilgandan so‘ng, oliy ta‘lim muassasasining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

(7-bob O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

8-bob. Yakunlovchi qoida

31. Mazkur Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

Oldingi tahrirga qarang.

31¹. Oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha qarorlardan norozi bo‘lganlar tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga belgilangan tartibda murojaat qilish huquqiga ega.

(31¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 iyundagi 393-son qaroriga 3-ILOVA

Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom «Ta‘lim to‘g‘risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va oliy ta‘lim sohasidagi boshqa qonun hujjatlariga muvofiq oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibini belgilaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasiga va harbiy oliy ta‘lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 oktabrdagi 886-sonli qaroritahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.10.2019 y., 09/19/886/3941-son)

Oldingi tahrirga qarang.

2¹. Xorijiy fuqarolarning o‘qishini xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalariga ko‘chirish (tiklash) suhbat asosida amalga oshiriladi. Ularning to‘lov-kontrakt mablag‘lari miqdori qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

(2¹-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

3. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi hamda bu boradagi komissiyalar faoliyatining shaffofligini ta‘minlash maqsadida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda oliy ta‘lim muassasalarning saytlarida alohida ma‘lumotlar bazasi tashkil etiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ma‘lumotlar bazasi mazkur Nizom, hududiy ishchi guruhlar tashkil etiladigan oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxati va ularga topshiriladigan hujjatlar namunalari, xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan o‘qishini ko‘chirmoqchi bo‘lganlar uchun sinovlarni o‘tkazish muddatlari, manzili aks ettirilgan jadvaldan tashkil topadi.

(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

2-bob. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashning umumiy qoidalari

Oldingi tahrirga qarang.

4. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklashda (keyingi o‘rinlarda talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash deb ataladi) ta‘lim yo‘nalishlarining (mutaxassisliklarining) nomlanishi bir xil bo‘lganda bunday ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassisliklari) mos deb hisoblanadi.

Oliy ta‘limning turdosh ta‘lim yo‘nalishlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

5. Talabalar o‘qishini ko‘chirish yoki qayta tiklash:

oliy ta‘lim muassasalari;

tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar;

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Davlat komissiyasi deb ataladi) qarorlari asosida amalga oshiriladi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

6. Bir oliy ta'lim muassasasi doirasida oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash shu oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

(6-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

7. Quyidagi hollarda talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash talabani qabul qilayotgan oliy ta'lim muassasasi bo'ysunadigan vazirlik (idora) qarori asosida amalga oshiriladi:

oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha bir vazirlik (idora) doirasida boshqa oliy ta'lim muassasasiga;

oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha turli vazirlik (idora) doirasida bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa oliy ta'lim muassasasiga.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

8. Quyidagi hollarda talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash Davlat komissiyasi qarori bilan amalga oshiriladi:

xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalaridan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga;

bir oliy ta'lim muassasasi doirasida yoki bir vazirlik yoki idora yoxud turli vazirliklar va idoralar tizimidagi oliy ta'lim muassasalariga oliy ta'limning turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga va istisno tariqasida mos bo'lmagan mutaxassisliklariga.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

9. Quyidagi holatlar fuqaroning o'qishini ko'chirish va qayta tiklash haqidagi arizasiga rad javobi berilishiga asos bo'ladi:

xorijiy davlatlarning akkreditatsiyaga ega bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida yoki ularning filiallarida o'qiganlarga;

respublika oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud ta'lim shaklidan o'zga (boshqa) ta'lim shaklida o'qiganlarga;

oliy ta'lim muassasalarining markazlari, bo'limlari, o'quv-maslahat punktlari va boshqalarda o'qiganlarga;

birinchi kursning birinchi semestriga birinchi semestr tugallanmagan holatda o'qishni ko'chirishga (talabaga kasallik tufayli akademik ta'til berilgan holatlar, o'qigan ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lmaganda ko'chirib tiklash holatlari bundan mustasno);

oliy ta'lim muassasasida mos (turdosh) ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) yoki ta'lim shakli mavjud bo'lmasa;

namunaviy o'quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlar 4 tadan oshganda;

to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirmaganda;

talabaning shaxsiy yig'ma jildi (akademik ma'lumotnoma) belgilangan muddatlarda taqdim etilmaganda;

oliy ta'lim muassasasiga davlat granti asosida ko'chirish va qayta tiklash davlat granti asosida ta'lim oluvchilar soni (qabul kvotalari) doirasida bo'sh o'rinlar mavjud bo'lmasa;

oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasining imkoniyati cheklanganda;

maqsadli qabul qilinganlar boshqa ta'lim yo'nalishi yoki ta'lim shakliga, boshqa oliy ta'lim muassasasiga;

kechki (smenali) ta'limdan sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limga hamda kechki (smenali) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limdan kunduzgi ta'limga hamda sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limning bir ta'lim sohasidan ikkinchi ta'lim sohasiga;

bir ta'lim shaklidan maxsus sirtqi ta'lim shakliga hamda maxsus sirtqi ta'lim shaklidan boshqa ta'lim shakliga;

talaba O'zbekiston va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinib qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olgan yoki tahsil olayotgan bo'lsa (mazkur qo'shma dasturning o'zi bundan mustasno);

qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlarda.

Fuqaroning o'qishini ko'chirish (qayta tiklash) bo'yicha arizasiga rad javobi berilgan taqdirda, arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatda, arizada ko'rsatilgan manzilga, arizani ko'rib chiqqan komissiya yoki komissiya vakolat bergan tashkilot tomonidan javob xati yo'llanadi.

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. Talabalarning o'qishini ko'chirish va qayta tiklashni rasmiylashtirishda oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) belgilangan tartibda o'quv rejalari va dasturlardagi mavjud akademik qarzlarni yoki farqlarni (namunaviy o'quv rejalariidagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlar 4 tadan oshmasligi lozim) topshirish tartibi va muddatlarini (joriy semestr davomida), o'qitish kursi (semestri) hamda o'qishga qabul qilishning qonun hujjatlarida belgilangan boshqa shartlarini belgilaydi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

11. Toshkent davlat yuridik universitetida tahsil olayotgan talabalar ikkinchi kursdan boshlab o'qishning bir o'quv yiligacha bo'lgan muddatni xorijiy oliy ta'lim muassasasining yurisprudensiya yo'nalishida o'qish huquqiga ega. Talabaning xorijiy oliy ta'lim muassasasida o'qigan davri va o'zlashtirgan fanlari xorijiy oliy ta'lim muassasasi ma'lumotnomasi asosida universitet Kengashi tomonidan universitet o'quv rejasi va dasturlarining tegishli qismlarini o'zlashtirganligi sifatida qabul qilinishi va talabaga o'qishini tegishli o'quv semestridan davom ettirish huquqi berilishi mumkin.

12. To'lov-kontrakt asosida talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklashda to'lov-kontraktni tuzish tartibi va shartlari, jumladan, to'lov mablag'lari va muddatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

13. Davlat oliy ta'lim muassasalarida o'qishni ko'chirish va qayta tiklash jarayoni bepul amalga oshiriladi.

14. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklashni amalga oshirish tartibi mazkur Nizomga ilovaga muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

3-bob. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish

15. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qishini ko'chirish (keyingi o'rinlarda Talabalar o'qishini ko'chirish deb ataladi) bo'yicha arizalarni topshirish va ko'rib chiqish quyidagicha amalga oshiriladi:

o'qishini ko'chirish bo'yicha arizalarni taqdim etish — har yili 15 iyuldan 5 avgustga qadar amalga oshiriladi;

Oldingi tahrirga qarang.

arizalarni oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqib, qaror qabul qilish — har yili 5 avgustdan 30 avgustga qadar amalga oshiriladi.

(15-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Talabalar o'qishini ko'chirish uzrli sabablarga ko'ra (respublikaning bir hududidan ikkinchi hududiga doimiy yashash uchun yoki turmushga chiqish munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan (pasport bo'yicha doimiy ro'yxatdan o'tgan) hududga ko'chib o'tganda, turmush o'rtog'i yoki ota-onasi harbiy xizmat o'tash joyini o'zgartirganda, yoxud ota-onasi (turmush o'rtog'i) xorijdagi davlat xizmatidan qaytganda) bahorgi semestrda o'quv mashg'ulotlari boshlanishidan oldin ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda:

(15-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

o'qishini ko'chirish bo'yicha ariza topshirish — har yili 20 dekabrda keyingi yilning 20 yanvariga qadar;

o'qishini ko'chirish bo'yicha arizani ko'rib chiqib, qaror qabul qilish — har yili 25 yanvardan 15 fevralga qadar amalga oshiriladi.

16. Talabalarning o'qishini ko'chirish haqidagi arizalari mos ravishda:

ushbu Nizomning 6-bandida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan — oliy ta'lim muassasasining qabul komissiyasiga topshiriladi;

ushbu Nizomning 7 va 8-bandlarida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan — Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladigan Hududiy ishchi guruhlarga topshiriladi.

Hududiy ishchi guruhlar qabul qilingan hujjatlarni umumlashtirib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi talabalar o'qishini ko'chirish haqidagi arizalarni mazkur Nizomda belgilangan vakolatlar doirasida shakllantirib Davlat komissiyasiga va vazirliklar (idoralar)ga qaror qabul qilish uchun yo'llaydi.

(16-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

17. O'qishini ko'chirish istagini bildirgan fuqaro quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

Oldingi tahrirga qarang.

ko'chirish (qayta tiklash)ni istagan ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), o'quv tili va shakli ko'rsatilgan holdagi ariza (arizada o'qigan oliy ta'lim muassasasi va ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi), ta'lim shakli, maqsadli qabul bo'yicha o'qishga kirmaganligi, ko'chirish (qayta tiklash) sabablari, ko'chirish (qayta tiklash) qoidalari bilan tanishganligi ko'rsatiladi);

(17-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

talabning reyting daftarchasi yoki belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma nusxalari;

pasportning nusxasi.

18. Talabalar o'qishini ko'chirish haqidagi arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ushbu Nizomning 6-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha ariza ko'rib chiqilib, oliy ta'lim muassasasi rektorining tegishli qarori qabul qilinadi va bu haqda ariza bergan shaxsga shaxsan ma'lum qilinadi;

ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar tegishli vazirlik (idora) tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi va bu haqda ariza bergan shaxsga ma'lum qilinadi;

Oldingi tahrirga qarang.

ushbu Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

(18-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilgan taqdirda, tegishli vazirlik (idora) oliy ta'lim muassasasiga belgilangan shaklda xat yo'llaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar ko'rib chiqilib, ijobiy hal etilgan taqdirda, Davlat komissiyasi oliy ta'lim muassasasiga belgilangan shaklda xat yo'llaydi.

(18-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

19. Tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasining xati asosida oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan o'qishi ko'chirilayotgan talaba darslarga qo'yiladi hamda ushbu oliy ta'lim muassasasi tomonidan talaba ilgari

ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasiga uning shaxsiy yig'ma jildini jo'natish uchun so'rovnoma yuboriladi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

20. So'rovnoma olingandan so'ng, talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasi rektorining talabalar safidan chetlashtirish haqida buyrug'i asosida uch kun muddatda talabaning shaxsiy yig'ma jildi (ro'yxati bilan) uni o'qishga qabul qilgan oliy ta'lim muassasasiga jo'natiladi yoki ariza bilan o'qishi ko'chirilgan talabaga beriladi.

Shaxsiy yig'ma jild jo'natilishi mumkin bo'lmagan hollarda (yopiq yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash) oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan imzolangan va gerbli muhr bilan tasdiqlangan akademik ma'lumotnoma talabani o'qishga qabul qilgan oliy ta'lim muassasasiga jo'natiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

O'qishi ko'chirilishiga ruxsat etilgan talabaning maqsadli qabul asosida o'qiyotganligi o'qib turgan oliy ta'lim muassasasi tomonidan tekshiriladi va haqiqatda maqsadli qabul asosida o'qiyotganligi aniqlangan taqdirda so'rovnoma yuborgan oliy ta'lim muassasasiga hamda talabaga mazkur talabaning o'qishi ko'chirilishi mumkin emasligi to'g'risida uch kun muddatda tegishli xat yo'llanadi.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

21. Talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasida uning akademik ma'lumotnomasi, reyting daftarchasi, o'quv kartochkasi, shuningdek jo'natilayotgan hujjatlar ro'yxatining nusxasi qoldiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

22. O'qishning barcha shakllari bo'yicha oliy ta'limning mos va turdosh yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklari bo'yicha davlat grantlari o'rinlariga ko'chirishga faqat davlat grantlari asosida tahsil olgan talabalar arizasiga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida tegishli o'quv yilidagi qabul qilish kvotalarida belgilangan davlat grantlarining soni doirasida ruxsat etiladi.

Ko'zi ojizlar toifasiga kiruvchi sifatida hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga ajratilgan kvota doirasida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar o'qishini oliy ta'limning mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari hamda mos mutaxassisliklariga davlat granti asosida ko'chirilishiga ruxsat etiladi.

Boshqa hollarda, shuningdek, xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan o'qishni ko'chirish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

(22-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

23. Xorijiy oliy ta’lim muassasalaridan o‘qishini O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga ko‘chirish va ko‘chirib qayta tiklash istagini bildirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tizimida oliy ta’lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarda tashkil qilingan komissiyalarda o‘qishi ko‘chirilayotgan oliy ta’lim muassasalarining muayyan ta’lim yo‘nalishidagi o‘qishga kirish fanlari bo‘yicha o‘qiydigan tilida maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish yoki kasbiy (ijodiy) imtihon shaklida) topshiradi.

Turmush o‘rtog‘i yoki ota-onasi xorijiy davlatdagi davlat xizmatini o‘tash joyi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga o‘tkazilgan, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda oliy ta’lim muassasalariga ega vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o‘qishga yuborilganlarning o‘qishini O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga ko‘chirish maxsus sinovlarsiz Davlat komissiyasi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Fuqaroning maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish yoki kasbiy (ijodiy) imtihon shaklida) natijasi Davlat komissiyasiga taqdim etiladi. Maxsus sinov (komissiya tomonidan belgilangan test yoki yozma ish shaklida) natijasidan kelib chiqib, fuqaro Davlat komissiyasi qarori bilan ko‘rsatilgan o‘quv shaklidagi guruhlariga to‘lov-kontrakt asosida ko‘chiriladi.

Ko‘chirilayotgan oliy ta’lim muassasasida tegishli o‘qitish tili mavjud bo‘lmasa, o‘qitish tilini tanlash fuqaroning arizasiga muvofiq amalga oshiriladi.

(23-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

23¹. Xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta’lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro‘yxatdan joy olgan Rossiya Federatsiyasi oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning arizalariga muvofiq ularning o‘qishi Davlat komissiyasi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga sinovlar (test, yozma ish)siz to‘lov-kontrakt asosida ko‘chiriladi.

Xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta’lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro‘yxatdan joy olgan Rossiya Federatsiyasi davlat oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati har yili Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

23². Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalar o'qishini O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga ko'chirilishiga ruxsat etilmaydi.

(23¹ va 23²-bandlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

24. Oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning talabani belgilangan tartib va muddatda darslarga qatnashishiga ruxsat etish to'g'risidagi buyrug'i talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasidan uning shaxsiy yig'ma jildi (shaxsiy yig'ma jild jo'natilishi mumkin bo'lmagan hollarda — akademik ma'lumotnomasi) olingandan keyin rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishi ko'chirilganlarni talabalar safiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to'lovlari bajarilgandan so'ng 10 kun muddatda qabul qilinadi.

(24-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

25. O'quv rejalardagi fanlari bo'yicha farqlar aniqlanganda talaba akademik qarzdor sifatida o'qishga qabul qilinadi.

Joriy semestr davomida akademik qarzdorlik (farqlar) bartaraf etilgan muddatdan boshlab, oliy ta'lim muassasasi rektorining talabaga o'rnatilgan tartibda stipendiya berish haqidagi buyrug'i chiqariladi. Stipendiya miqdorini belgilashda fanlar bo'yicha farqlarni topshirish ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi.

26. Oliy ta'lim muassasasida yuridik shaxs bilan tuzilgan to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalar o'qishini ko'chirish ushbu yuridik shaxsning roziligi bilan amalga oshiriladi.

4-bob. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini qayta tiklash

27. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qishini qayta tiklash (keyingi o'rinlarda Talabalar o'qishini qayta tiklash deb ataladi) bo'yicha arizalarni topshirish va ko'rib chiqish bir yilda ikki marta amalga oshiriladi:

o'qishini kuzgi semestrga qayta tiklash bo'yicha ariza topshirish — har yili 15 iyuldan 5 avgustga qadar;

Oldingi tahrirga qarang.

o'qishini bahorgi semestrga qayta tiklash bo'yicha ariza topshirish — har yili 15 yanvardan 25 yanvargacha davom etadi.

(27-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Qayta tiklash bo'yicha arizalarni oliy ta'lim muassasasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik (idora) tomonidan ko'rib chiqib qaror qabul qilish:

kuzgi semestrqa qayta tiklash uchun — har yili 5 avgustdan 30 avgustga qadar;

bahorgi semestrqa qayta tiklash uchun — har yili 25 yanvardan 15 fevralga qadar amalga oshiriladi.

28. Talabalar safidan chetlashtirilgan fuqarolar o'qishini boshqa oliy ta'lim muassasasiga mos (turdosh) ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi)ga ko'chirib tiklash to'g'risida ariza berish huquqiga ega. Bunda arizaga o'qishni ko'chirish tartibidagi hujjatlar taqdim etiladi.

29. Talabalar o'qishini qayta tiklash haqidagi arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

ushbu Nizomning 6-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha ariza ko'rib chiqilib, oliy ta'lim muassasasi rektorining tegishli qarori qabul qilinadi va bu haqda ariza bergan shaxsga shaxsan ma'lum qilinadi;

Oldingi tahrirga qarang.

ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar tegishli vazirlik yoki idora tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilinadi va bu haqda ariza bergan shaxsga ma'lum qilinadi;

ushbu Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha arizalar Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

(29-bandning uchinchi-to'rtinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

30. Barcha o'quv shakllari bo'yicha talabalar safiga qayta tiklash to'lov-kontrakt asosida mazkur Nizom talablariga rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

Davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan yetimlar, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tagan (zaxiraga bo'shagan kunlaridan boshlab uch yil mobaynida), akademik ta'tildan belgilangan muddatda qaytgan shaxslar, Hukumat qarorlari va topshiriqlari hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan davlat buyurtmasi bilan xorijga o'qishga yuborilgan va belgilangan muddatda qaytgan talabalar istisno tariqasida o'qishga (muayyan kursga) davlat grantlari o'rinlariga qayta tiklanishi mumkin.

(30-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

30¹. Respublika oliy ta'lim muassasalarining talabasi bo'lgan hamda hukumatlararo yoki idoralararo yoki oliy ta'lim muassasalariaro kelishuv doirasida xorijiy oliy ta'lim muassasasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasida tahsil olgan ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan yo'nalish bo'yicha, bir yoki bir necha semestr o'qib (O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'lim muassasasi bilan kelishuv asosida) belgilangan muddatda qaytgan talabalarning xorijiy oliy ta'lim muassasasida ta'lim olgan muddatlarini (semestr) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasasida inobatga olgan holda (muayyan ta'lim yo'nalishi va ta'lim shaklida, jumladan, davlat granti asosida tahsil olgan talabalar — davlat granti asosida) o'qishini davom ettirishiga ruxsat etiladi.

Bunda muayyan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha namunaviy o'quv rejalaridagi umumkasbiy va ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bo'yicha farqlarni tegishli o'quv semestri davomida qayta o'zlashtirishga ruxsat etiladi.

Belgilangan muddatdan kech qaytgan talabalar o'qishining tiklanishi umumiy tartibda ko'rib chiqiladi.

(30¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

31. Oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning talabani talabalar safiga qayta tiklashga, belgilangan tartib va muddatlarda darslarga qatnashishiga ruxsat etish to'g'risidagi buyrug'i (ko'chirib tiklashda talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasidan uning shaxsiy yig'ma jildi (shaxsiy yig'ma jild jo'natilishi mumkin bo'lmagan hollarda — akademik ma'lumotnomasi) olingandan keyin) rasmiylashtiriladi.

To'lov-kontrakt asosida o'qishi tiklanganlarni talabalar safiga o'qishga qabul qilish to'g'risidagi oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i ular tomonidan belgilangan muddatda shartnoma to'lovlari bajarilgandan so'ng 10 kun muddatda qabul qilinadi.

(31-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

32. O'quv rejalaridagi fanlari bo'yicha farqlar aniqlanganda talaba akademik qarzdor sifatida o'qishga qabul qilinadi.

Joriy semestr davomida akademik qarzdorlik (farqlar) bartaraf etilgan muddatdan boshlab, oliy ta'lim muassasasi rektorining talabaga o'rnatilgan tartibda stipendiya berish haqidagi buyrug'i chiqariladi. Stipendiya miqdorini belgilashda fanlar bo'yicha farqlarni topshirish ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi.

33. O‘qishdan chetlashtirilgan (kursdan qoldirilgan) o‘quv yilida kursiga talabani o‘qishga qayta tiklashga (ko‘chirib tiklashga) yo‘l qo‘yilmaydi.

34. Talabani boshqa oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishini ko‘chirib qayta tiklashda uning ilgari ta‘lim olgan oliy ta‘lim muassasasi roziligi talab etilmaydi.

35. O‘qishdan chetlatilganligiga 5 yildan 10 yilgacha muddat (harbiy xizmatda bo‘lganlik, uch yoshgacha bo‘lgan bolalarni parvarish qilish bilan bog‘liq mehnat ta‘tili hamda sog‘liqni qayta tiklash vaqtlari ushbu muddatga kirmaydi) bo‘lgan hollarda talabalar o‘qishini qayta tiklash oliy ta‘lim muassasasi bo‘ysunuvidagi vazirlik va idoralar ruxsati bilan amalga oshiriladi.

5-bob. Oliy ta‘lim muassasalari talabalarini o‘qishdan chetlashtirish

Oldingi tahrirga qarang.

36. Talaba oliy ta‘lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

a) o‘z xohishiga binoan;

b) o‘qishning boshqa ta‘lim muassasasiga ko‘chirilishi munosabati bilan;

v) salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma‘lumotnomasi asosida);

g) o‘quv intizomini va oliy ta‘lim muassasasining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;

d) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

ye) o‘qish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to‘lov-kontrakt bo‘yicha tahsil olayotganlar uchun);

j) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

z) sud qaroriga ko‘ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

i) vafot etganligi sababli.

Harbiy xizmatni o‘tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug‘ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish ta‘tillari davrida talabaga Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida akademik ta‘til berilishi mumkin.

(36-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

37. Belgilangan muddatlarda fanlarni o‘zlashtira olmagan (akademik qarzdor bo‘lgan) talaba oliy ta‘lim muassasasi rektori buyrug‘i bilan kursdan qoldiriladi.

Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to‘lov-kontrakt asosida o‘qishini quyi kursning tegishli o‘quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimi joriy etilgan oliy ta'lim muassasalarida akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talabalar quyi kursdagi tegishli o'quv semestridan boshlab faqat o'zlashtira olmagan fanlarini (modullarni) takroran o'qishi mumkin.

Kursdan qoldirilgan talaba ushbu Nizomning 36-bandidagi holatlar bo'yicha talabalar safidan chetlashtirilishi mumkin.

(37-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 apreldagi 360-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 09/19/360/3030-son)

Oldingi tahrirga qarang.

38. Oliy ta'lim muassasasi ma'muriyati tashabbusi bilan ushbu Nizomning 36-bandi «ye» kichik bandiga ko'ra talabalarni o'qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a'zosi bo'lgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, talaba mazkur Nizomning 36-bandi «g» kichik bandiga ko'ra chetlashtirilayotgan holda, ta'lim muassasasining Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

(38-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 12 sentabrdagi 712-sonli qaroritahririda — O'R QHT, 2017 y., 37-son, 996-modda)

39. Talaba oliy ta'lim muassasasidan chetlashtirilganda, unga (ota-onasi yoki huquqiy vasiysiga ularning arizasi bilan) shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma topshiriladi va ularning nusxasi shaxsiy yig'ma jildga tikib qo'yiladi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

40. Talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash jarayonida shaxsiy yig'ma jilddagi hujjatlar to'liq taqdim etilmagan yoki taqdim etilgan hujjatlarga o'zgartirishlar kiritilganligi yoxud hujjatlar o'rnatilgan tartibda tasdiqlanmaganligi aniqlangan hollarda oliy ta'lim muassasasi rektori mazkur hujjatlarni tekshirish va buyruq chiqarmaslik huquqiga ega.

41. Oliy ta'lim muassasasiga o'qishini ko'chirgan yoki qayta tiklagan talabalarining shaxsiy yig'ma jildiga tegishli buyruqdan ko'chirma, ariza va akademik ma'lumotnoma tikib qo'yiladi.

42. Oliy ta'lim muassasalari har yili Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga zarur miqdordagi akademik ma'lumotnoma blankalariga buyurtmalar beradilar.

Akademik ma'lumotnoma blankalarining qat'iy hisobi yuritiladi.

Akademik ma'lumotnoma blankalarining oliy ta'lim muassasalarida saqlanishi, ro'yxatga olinishi va berilishi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

43. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish to'g'risidagi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va ularning qonuniyligi uchun javobgarlik oliy ta'lim muassasalariga yuklanadi.

Zarurat bo'lganda rektor hujjatlarni yuborgan oliy ta'lim muassasalaridan rasmiy xat bilan ma'lumotlar to'g'riligini tasdiqlashni so'rashi mumkin.

44. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar o'qishini ko'chirish va tiklashiga asos bo'lgan barcha hujjatlar vakolat doirasi bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida 3 yil davomida saqlanishi lozim.

45. Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish to'g'risidagi qarorlardan norozi bo'lganlar belgilangan tartibda, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.